Chet ellik investorlar ishtirokidagi jamiyatni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat tashkiloti akstiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda akstiyadorlik jamiyatini ta'sis etish to'g'risidagi qaror davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyat muassislari va akstiyadorlarining soni cheklanmaydi.

Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning muassislari (muassisi) deb e'tirof etiladi.

Agar qonunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat organlari jamiyatning muassislari (akstiyadorlari) bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat muassislari jamiyatning tashkil etilishi bilan bog'liq majburiyatlar yuzasidan jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilguniga qadar solidar javobgar bo'ladi. Jamiyat muassislarning jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq majburiyatlari yuzasidan muassislarning harakatlari keyinchalik akstiyadorlarning umumiy yig'ilishida ma'qullangan taqdirdagina javobgar bo'ladi.

Davlat tashkiloti akstiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ jamiyatning muassisi bo'ladi.

Jamiyat muassislari o'rtasida akstiyalarni taqsimlash ta'sis hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta'sis yig'ilishi:

jamiyatni ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qiladi va uning ustavini tasdiqlaydi;

ta'sis etish jarayonida muassislar tomonidan tuzilgan shartnomalarni tasdiqlaydi;

muassislar tomonidan akstiyalar haqini to'lash tartibini belgilaydi;

chiqariladigan akstiyalarning turlarini va sonini belgilaydi;

jamiyatning kuzatuv kengashini, taftish komissiyasini (taftishchisini) saylaydi;

jamiyatning ijroiya organini tuzadi (saylaydi, tayinlaydi).

Ta'sis yig'ilishida ovoz berish muassislar kiritadigan ulushlarga muvofiq o'tkaziladi.

Ta'sis yig'ilishi qarorlarni oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi, bundan ta'sis shartnomasini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlar qabul qilinadigan hollar mustasno bo'lib, buning uchun barcha muassislarning roziligi talab etiladi.

Ta'sis yig'ilishining qarorlari jamiyatning barcha muassislari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Davlat tashkilotini akstiyadorlik jamiyati etib o'zgartirish davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan qaror asosida ta'sis yig'ilishini o'tkazmasdan amalga oshiriladi.

Bir muassisdan iborat bo'lgan jamiyatda ta'sis yig'ilishi o'tkazilmaydi.

Ustav jamiyatning ta'sis hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

jamiyatning to'liq (agar bo'lsa qisqartirilgan) firma nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) va maqsadi;

ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;

jamiyat akstiyalarining soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);

jamiyat boshqaruvining tuzilmasi, jamiyat kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a'zolari soni, bu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Jamiyat ustavida jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bitta akstiyadorga tegishli bo'lgan ulushning eng ko'p miqdoriga cheklovlar belgilanishi mumkin.

3.3. Jamiyatning ustav fondi Jamiyatning akstiyalari

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) va akstiyalari

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) akstiyadorlar olgan jamiyat akstiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha akstiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) jamiyat mol-mulkining jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

Jamiyat davlat mulki negizida tashkil etilayotganda tashkilotning (mol-mulkning) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) summasini tashkil etadi.

Jamiyat oddiy akstiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli akstiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli akstiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizidan oshmasligi kerak.

Jamiyat ta'sis etilayotganda uning barcha akstiyalari jamiyat muassislari o'rtasida joylashtiriladi.

Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha to'rt yuz ming AQSh dollariga teng summadan kamni tashkil etmasligi kerak.

Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirishning eng ko'p muddati jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi lozim.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha akstiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

Qo'shimcha akstiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan, e'lon qilingan akstiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

4-mavzu: Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda korporativ boshqaruv tizimi

Reja

4.1. Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning huquqiy holati

4.2. Mas'uliyati jamiyatni ta'sis etish tartibi

4.3. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) tarkibi.

4.1. Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning huquqiy holati

Mas'uliyati cheklangan jamiyat Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat- Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat deb hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulkilari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalar qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat (bundan buyon matnda jamiyat deb yuritiladi) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqlidir.

Jamiyat, agar uning ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lmagan jamiyat to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va jamiyatning joylashgan manzili ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishi kerak. Jamiyatning muhrida uning firma nomi jamiyatning ixtiyoriga binoan boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

Jamiyat o'zining firma nomi yozilgan shtamplariga va blankalariga, o'z emblemasiga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, tovarlar, ishlar va xizmatlarni individuallashtiruvchi o'zga vositalarga ega bo'lishga haqli. Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lgan jamiyat muhrga ega bo'lishga haqli.

Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin. Ro'yxati qonunlarda belgilanadigan ayrim faoliyat turlari bilan jamiyat faqat listenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

Jamiyat o'z ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

Jamiyatning bankrotligi ishtirokchi sifatidagi shaxsning aybi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

4.2. Mas'uliyati jamiyatni ta'sis etish tartibi

Jamiyatni ta'sis etish tartibi -jamiyatning muassislari ta'sis shartnomasini tuzadilar va jamiyat ustavini tasdiqlaydilar, Jamiyat muassislari jamiyatning ijro etuvchi organlarini saylaydilar (tayinlaydilar), shuningdek jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) pulsiz hissalar qo'shilgan taqdirda, ularning pul bahosini tasdiqlaydilar. Jamiyat ustavini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, shuningdek jamiyat muassislari kiritadigan hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qaror muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Boshqa qarorlar jamiyatning muassislari tomonidan Qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qabul qilinadi.

Jamiyatning muassislari jamiyatni ta'sis etish bilan bog'liq va uni davlat ro'yxatidan o'tkazishga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan solidar javobgar bo'ladilar. Jamiyat muassislarning uni ta'sis etish bilan bog'liq

majburiyatlari yuzasidan, ularning harakatlari keyinchalik jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan ma'qullangan taqdirdagina javobgar bo'ladi.

Jamiyatning ta'sis hujjatlari- jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi jamiyat ta'sis hujjatlari deb hisoblanadi.

Agar jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilsa, shu shaxs tasdiqlagan ustav jamiyatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Jamiyat ishtirokchilarining soni ikki va undan ortiq kishiga ko'paysa, ular o'rtasida ta'sis shartnomasi tuzilishi kerak.

Jamiyat ishtirokchisining, auditorning yoki istalgan manfaatdor shaxsning talabiga binoan jamiyat ularga jamiyatning ta'sis hujjatlari bilan, shu jumladan unga kiritilgan o'zgartishlar bilan tanishish imkoniyatini berishi shart. Jamiyat ishtirokchisining talabiga binoan jamiyat unga jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi nusxalarini berishi shart. Nusxalarni berganlik uchun jamiyat tomonidan olinadigan haq ularni tayyorlashga ketgan xarajatlardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga binoan kiritiladi. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi. Vakolatxonalar va filiallar tashkil etilishi, shuningdek jamiyatning pochta manzili o'zgarishi bilan bog'liq o'zgartishlar kiritilgan hollarda, bunday o'zgartishlar yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor qilingan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

Ta'sis shartnomasi qoidalari bilan jamiyat ustavi qoidalari mos kelmagan hollarda jamiyat ustavi qoidalari uchinchi shaxslar va jamiyat ishtirokchilari uchun ustuvor kuchga ega bo'ladi.

Jamiyatning ta'sis shartnomasi- ta'sis shartnomasida jamiyatning muassislari jamiyatni tuzish majburiyatini oladilar va uni tuzish yuzasidan birgalikdagi faoliyat tartibini belgilaydilar.

4.3. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) tarkibi.

Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali) uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatlaridan tarkib topadi.

Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining qirq baravaridan kam bo'lmasligi lozim.

Jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining miqdori foizlarda yoki kasr ko'rinishida belgilanadi. Jamiyat ishtirokchisi ulushining miqdori uning ulushi nominal qiymati bilan jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) nisbatiga teng bo'lishi kerak.

Jamiyat ishtirokchisi ulushining haqiqiy qiymati jamiyat sof aktivlari qiymatining uning ulushi miqdoriga mutanosib bo'lgan bir qismiga mos bo'ladi.

Jamiyatning ustavi bilan jamiyat ishtirokchisi ulushining eng yuqori miqdori, shuningdek jamiyat ishtirokchilari ulushlarining nisbatini o'zgartirish imkoniyati cheklab qo'yilishi mumkin. Bunday cheklashlar jamiyatning ayrim ishtirokchilariga nisbatan belgilanishi mumkin emas. Ko'rsatib o'tilgan qoidalar jamiyat ta'sis etilayotganda uning ustavida nazarda tutilishi, shuningdek jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyat barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qaroriga binoan jamiyatning ustaviga kiritilishi, o'zgartirilishi va undan chiqarib tashlanishi mumkin.

Jamiyat faqat kredit tashkiloti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan paytga qadar uning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z hissasining kamida o'ttiz foizini kiritishi shart.

Jamiyatning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida belgilangan va jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) o'z hissasini to'liq kiritishi kerak.

Jamiyatning ishtirokchisi tomonidan hissaning to'liq kiritilganligi jamiyat ishtirokchisiga beriladigan guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Jamiyat ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalar Pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin.

Jamiyatning ishtirokchilari va jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi.

Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida jamiyatga foydalanish uchun berilgan mol-mulkning muddat o'tgunga qadar ushbu mol-mulkdan foydalanish huquqi tugatilgan taqdirda, jamiyatning mol-mulkni bergan ishtirokchisi jamiyatning talabiga binoan unga shunday mol-mulkdan shunga o'xshash sharoitlarda qolgan muddat mobaynida foydalanganlik uchun to'lanadigan haqiga teng pul to'lovini to'lashi shart. Pul to'lovini jamiyat tomonidan uni berish talabnomasi taqdim etilganidan e'tiboran agar jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qarori bilan to'lov to'lashning boshqacha tartibi belgilangan bo'lmasa, bir oy ichida bir yo'la to'lanishi kerak. Bunday qaror jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida mol-mulkdan foydalanish huquqini bergan va bu huquq muddatidan ilgari tugatilgan jamiyat ishtirokchisining ovozini hisobga olmagan holda jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Ta'sis hujjatlarida jamiyat ishtirokchisi tomonidan ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida jamiyatga foydalanish uchun berilgan mol-mulkdan foydalanish huquqining muddatidan ilgari tugatilganligi uchun jamiyat ishtirokchisi tomonidan tovon to'lashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

5 mavzu: Xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi

REJA:

5.1. Xo'jalik shirkat va to'liq shirkat tushunchasining mohiyati

5.2. Kommandit shirkati boshqaruvi va unda ishlarni yuritish

5.3. Xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi asoslari.

5.1. Xo'jalik shirkat va to'liq shirkat tushunchasining mohiyati

Xo'jalik shirkati - muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar.

Xo'jalik shirkati to'liq shirkat yoki kommandit shirkat shaklida tuziladi.

Xo'jalik shirkati, agar uning ta'sis shartnomasida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Xo'jalik shirkati o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday turdagi faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Qonunlarda belgilanadigan faoliyatning ayrim turlari bilan xo'jalik shirkati faqat listenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi, vakolatxonalar va filiallar tashkil etishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs sifatida tuzilgan deb hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lmagan xo'jalik shirkati to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va xo'jalik shirkatining joylashgan manzili ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishi kerak. Xo'jalik shirkatining muhrida uning firma nomi xo'jalik shirkatining ixtiyoriga ko'ra boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati o'zining firma nomi yozilgan shtamplariga va blankalariga, o'z emblemasiga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan

o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, tovarlar, ishlar va xizmatlarni individuallashtiruvchi o'zga vositalarga ega bo'lishga haqli. Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lgan xo'jalik shirkati muhrga ega bo'lishga haqli.

To'liq shirkat tushunchasi- ishtirokchilari (to'liq sheriklari) o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to'liq shirkat deb hisoblanadi.

Shaxs faqat bitta to'liq shirkatning ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

To'liq shirkatning (bundan buyon matnda shirkat deb yuritiladi) firma nomi yo uning barcha ishtirokchilari nomini (nomlanishini), shuningdek «to'liq shirkat» degan so'zlarni yoxud bir yoki bir necha ishtirokchining «va kompaniya» degan so'zlar qo'shilgan nomini (nomlanishini), shuningdek «to'liq shirkat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

5.2. Kommandit shirkati boshqaruvi va unda ishlarni yuritish

Kommandit shirkat tushunchasi - shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulkleri bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat deb hisoblanadi.

Kommandit shirkatda ishtirok etayotgan to'liq sheriklarning huquqlari va ularning shirkat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi ushbu Qonunning to'liq shirkat ishtirokchilari to'g'risidagi qoidalari bilan belgilanadi.

Shaxs faqat bitta kommandit shirkatda to'liq sherik bo'lishi mumkin.

To'liq shirkat ishtirokchisi kommandit shirkatda to'liq sherik bo'la olmaydi.

Kommandit shirkatdagi to'liq sherik o'sha shirkatning o'zida hissa qo'shuvchi va boshqa to'liq shirkatda ishtirokchi bo'lishi mumkin emas.

Kommandit shirkatning firma nomi yo barcha to'liq sheriklarning nomlarini (nomlanishini) va «kommandit shirkat» degan so'zlarni yoxud kamida bitta to'liq sherikning «va kompaniya» degan so'zlar qo'shilgan holdagi nomini (nomlanishini), shuningdek «kommandit shirkat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

Agar kommandit shirkatning firma nomiga hissa qo'shuvchining nomi kiritilgan bo'lsa, bunday hissa qo'shuvchi to'liq sherikka aylanadi.

Agar ushbu Qonunning kommandit shirkat to'g'risidagi qoidalarida boshqacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa, kommandit shirkatga nisbatan ushbu Qonunning to'liq shirkat to'g'risidagi qoidalari qo'llaniladi.

29-modda. Kommandit shirkatda boshqaruv va uning ishlarini yuritish

Kommandit shirkat faoliyatini boshqarish to'liq sheriklar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday shirkatni uning to'liq sheriklari tomonidan boshqarish va uning ishlarini yuritish tartibi ular tomonidan ushbu Qonunning to'liq shirkat to'g'risidagi qoidalariga ko'ra belgilanadi.

Hissa qo'shuvchilar kommandit shirkatni boshqarishda va uning ishlarini yuritishda ishtirok etishga ishonchnomasiz boshqa har qanday tarzda uning nomidan ish ko'rishga haqli emaslar. Hissa qo'shuvchilar shirkatni boshqarish va uning ishlarini yuritish bo'yicha to'liq sheriklarning xatti-harakatlari xususida bahslashishga haqli emaslar.

5.3. Xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi asoslari.

Shirkatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalar

Pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar ishtirokchilarning shirkat ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shadigan hamda shirkatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning hissalar bo'lishi mumkin.

Shirkatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) pulsiz hissasining pul hisobidagi bahosi shirkatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan shirkat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qarori bilan tasdiqlanadi.

Shirkatga tegishli mol-mulk unga ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida foydalanishga berilgan muddat o'tguniga qadar mol-mulkdan foydalanish huquqi tugatilgan taqdirda, shirkatning mol-mulkni bergan ishtirokchisi shirkatning talabiga binoan unga shunday mol-mulkdan shunga o'xshash sharoitlarda qolgan muddat mobaynida foydalanganlik uchun to'lanadigan haqqa teng pul to'lovini to'lashi shart. Pul to'lovini shirkat tomonidan uni berish talabnomasi taqdim etilganidan e'tiboran, agar shirkat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qarori bilan to'lov to'lashning boshqacha tartibi belgilangan bo'lmasa, bir oy ichida bir yo'la to'lanishi kerak. Bunday qaror shirkatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida mol-mulkdan foydalanish huquqini bergan va bu huquq muddatidan ilgari tugatilgan shirkat ishtirokchisining ovozini hisobga olmagan holda shirkat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Shirkat ishtirokchisi ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida shirkatga foydalanish uchun berib qo'ygan mol-mulkdan foydalanish huquqining muddatidan ilgari tugatilganligi uchun shirkat ishtirokchisi tomonidan to'lov to'lashning boshqacha tartibi ta'sis shartnomasida nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Shirkatdan chiqarilgan yoki undan chiqib ketgan ishtirokchi tomonidan shirkatga ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida foydalanishga berilgan mol-mulk, agar ta'sis shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa,

u qancha muddatga berilgan bo'lsa, shuncha muddat davomida shirkatning foydalanishida qolaveradi.

O'z hissasini to'liq kiritgan shirkat ishtirokchisiga guvohnoma beriladi.

Shirkat ustav fondining (ustav kapitalining) ko'paytirilishi

Shirkat ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirishga u to'liq to'langanidan keyingina yo'l qo'yiladi.

Shirkat ustav fondining (ustav kapitalining) ko'paytirilishi shirkat mol-mulki hisobiga va (yoki) shirkat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalariga hisobiga va (yoki) agar bu shirkatning ta'sis shartnomasida taqiqlangan bo'lmasa, shirkatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning hissalariga hisobiga ushbu Qonunda nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Ustav fondining (ustav kapitalining) ko'paytirilishi shirkat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining bir ovozdan qabul qilingan qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Shirkat ustav fondini (ustav kapitalini) uning mol-mulki hisobiga ko'paytirish

Shirkat ustav fondini (ustav kapitalini) shirkatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qaror shunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun shirkatning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.

Shirkat ustav fondi (ustav kapitali) shirkatning mol-mulki hisobiga ko'paytiriladigan summa shirkat sof aktivlarining qiymati bilan ustav fondi (ustav kapitali) summasi o'rtasidagi farqdan ortiq bo'lmasligi kerak.

6 – mavzu: Oilaviy kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi

REJA:

- 1. Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli**
- 2. Oilaviy kompaniya tushunchasi**
- 3. O'zbekistonda oilaviy korxonalar va ularni boshqarish**

1. Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli

Turli mamlakatlarda korporativ boshqaruvning o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib, korporativ boshqaruv milliy sharoitlarga moslashtirilgan hisoblanadi. Korporativ boshqaruvning milliy modeli - bu turli xil usullar, milliy iqtisodiyotning eng xos iqtisodiy sharoitlari orqali korporativ nazoratni amalga oshirishga asoslangan boshqaruv tizimi.

Korporatsiya boshqaruvining mumtoz modellari qatorida: nemis, inglizcha - amerika va yaponcha, mavjud modellardan biriga mos keladigan xususiyatlarni ajratib ko'rsatish. Ushbu modellardan biri korporativ boshqaruvning oilaviy modeli. Korporatsiya boshqaruvining ushbu modeli Lotin

Amerikasi, Osiyo mamlakatlarida, shuningdek ba'zi Evropa mamlakatlarida - Italiya, Fransiya va Shveytsariya joylashgan.

Ushbu modelning alohida xususiyati shundaki, u bir oila tomonidan nazorat qilinadi, va kapital tarqatiladi va oilaviy kanallarida jamlangan bo'ladi. kompaniya nazorat, shuning uchun quyidagi kompaniyalar guruhi va ular tomonidan nazorat navbatida, guruh piramidal qurish yordamida, shuning uchun oila o'tkazish tomonidan nazorat qilinadi kompaniyalar guruhi bilan qurilgan. ehtiyoj qo'shimcha kapital olish uchun bo'lsa, bu modelda, investorlar faqat jalb bor, va ular oila xolding kompaniyasi tegishli kompaniyalar birida ko'pchilik ovozi egalik qila olmaydi.

Ushbu model gorizontol o'zaro faoliyatni tashkil qiladi. Bu kapitalning barcha huquqlariga ega bo'lgan va guruhning barcha kompaniyalari ustidan to'la nazoratga ega bo'lgan bosh kompaniyaga o'tkaziladigan xolding tarkibiga kiruvchi kompaniyalarning foydasi uchun zarurdir. Pulni qayta taqsimlashni o'tkazish narxini, o'zaro moliyaviy yoki o'zaro sug'urta qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, guruhga tegishli bo'lgan firmalarning nazoratini ta'minlash maqsadida bir xil ovoz berish huquqiga ega bo'lgan bir nechta sinflar chiqariladi. Bunday holatda, ota-kompaniya ko'p sonli ovozga ega bo'lgan aktsiyalarga egalik qiladi va birja bozorida muomalaga chiqariladigan aktsiyalar uchun ovozlarning kam miqdordagi ulushi joylashtiriladi. Agar har ikkala aktsionerlik klassi bir ovozni talab qilsa, oilaviy tuzilishga tegishli ulushlar, masalan, boshqaruv kengashi a'zolarining ko'pchiligini tanlashning mutlaq huquqi muayyan afzalliklarga ega.

Bundan tashqari, ushbu model agentlik xarajatlarining o'ziga xos xususiyatlariga ega. Klassik modellardan farqli o'laroq, oilaviy biznes tuzilmalarida menejerlarning xatti-harakatlari aksariyat aktsiyadorlar guruhining, ya'ni oilalarning foydasiga qaratilgan. Ayniqsa, tashqi aktsiyadorlarga zarar etkazadigan tegishli oilaviy kompaniyalar o'rtasidagi operatsiyalarda agentlik xarajatlarining namoyishi.

Korporativ boshqaruvning oilaviy modelida tashqi moliyalash asosan banklar tomonidan amalga oshiriladi, chunki ustav kapital va obligatsiyalar bozori rivojlanmagan. Shu munosabat bilan, banklarning kompaniyalarning xatti-harakatini nazorat qiluvchi organlar rolining ahamiyati ko'rsatildi. Biroq, bu model odatiy bo'lgan mamlakatlarda tijorat banklari kamdan-kam. Ko'pincha banklar asosiy korporativ qarz oluvchilarning aktivlariga egalik qiladi. Ushbu mamlakatlarda raqobat tijorat banklari faoliyatini amalga oshirish uchun qattiq cheklovlar yoki xorijiy moliya tashkilotlari tomonidan taqiqlangan. Natijada, banklar oilalar tomonidan boshqariladigan konglomeratlar tomonidan qo'lga kiritildi yoki davlat subsidiyasining rahbarlari bo'ldi.

Korporativ boshqaruvning oilaviy modeli biznesni yuritish nuqtai nazaridan samarasiz va eskirgan deb hisoblash mumkin. Biroq, sanoati rivojlangan davlatlarning YaIMning yarmidan ko'pi oilaviy firmalarning


ulushiga to'g'ri keladi. Ushbu bosqichda korporativ boshqaruvni rivojlantirishda boshqalarga nisbatan aniq ustunlikka ega bo'lgan va universal bo'lishi mumkin bo'lgan modelni ajratib ko'rsatish mumkin emas. Aksincha, oxirgi o'n yilliklarda korporativ boshqaruvning turli modellarini birlashtirish va birlashtirish tendentsiyasi kuzatildi.

2. Oilaviy kompaniya tushunchasi va uni boshqarish

Oilaviy kompaniya - biznes bir xil, a'zolari bir-biriga sulolalar nikoh va boshqa norasmiy aloqalarni bilan qiz, egalari va bu biznes manfaatlarida muayyan oila yoki bir necha oilalar, uning a'zo bilan xarakterlanadi. iqtisodiy faoliyat, ularning faoliyatdan olingan foyda va dividendlar sub'ektlari yaratilgan asosiy o'rinlardan va rollarning taqsimlanishi ham oila yoki oila guruh ichida amalga oshiriladi. oila ish ko'pincha mahsulotlar va muayyan oila yoki oilalar tomonidan tegishli alohida kompaniya xizmatlarini sotilgan ostidan Brend nomi uning asoschisi nomi va egasi kompaniyaning nomi bilan xarakterlanadi uchun.

Oilaviy biznesni oila a'zolarining ikkitasi yoki undan ko'pi ishtirok etadigan va egalik yoki nazoratning aksariyati oilada bo'lgan har qanday biznes sifatida aniqlanishi mumkin. Oilaviy korxonalar biznesning eng eski shakli bo'lishi mumkin. Fermalar oilaviy biznesning dastlabki shakli bo'lib, biz bugungi kunda shaxsiy hayot va ish hayoti deb o'ylamoqdamiz. Shahar sharoitida bir do'kon yoki shifokorning o'zi ishlagan binoda yashashi va oila a'zolari tez-tez ish bilan yordam berishi uchun odatiy hol edi.

1980-yillarning boshidan beri oilaviy biznesning alohida va muhim savdo toifasi sifatida ilmiy tadqiqoti ishlab chiqildi. Bugungi kunda oilaviy biznes jahon iqtisodiyotida muhim va dinamik ishtirokchilar sifatida e'tirof etiladi. AQShning aholini ro'yxatga olish byurosiga ko'ra, Amerika biznesining qariyb 90 foizi oilaga tegishli yoki nazorat ostida. Fortune 500 firmasiga ikki tomonlama sherikliklardan o'lchami, bu korxonalar ish bilan band bo'lganlarning yarmini va uning yalpi milliy mahsulotining yarmini tashkil etadi. Oilaviy biznes boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan uzoq muddatli yo'nalishlarda, ularning sifatiga bo'lgan majburiyatlari (ko'pincha oila nomi bilan bog'liq) va ularning xodimlarining g'amxo'rliqi va tashvishlari bilan bir qator afzalliklarga ega bo'lishi mumkin. Biroq, oilaviy biznes ham oilaviy biznes va biznes muammolarini bartaraf etishdan kelib chiqqan noyob boshqaruv muammolariga duch keladi.



1-rasm. Oilaviy kompaniyani boshqarish tizimi⁶

Turli xil biznes shakllarining rentabelligini qiyosiy tahlil qilish qiziqarli natijalar berdi. Ma'lumki, oilaviy kompaniya barqaror bo'lib, barqaror daromad keltirib chiqaradi, qolganlarini esa bu ko'rsatkichga ustun qo'yadi.

Oilaviy kompaniya juda kichik bo'lishi mumkin, masalan, mahalliy do'kon, o'rta darajadagi biznes yoki BMW, Samsung yoki Swatch kabi transmilliy korporatsiya. Ularning umumiy xususiyati shundaki, ular ko'pgina mamlakatlar iqtisodlarining asosini tashkil qiladi, ular barqarorlik va o'sishni kafolatlaydi. Hatto o'tgan asrning oxiriga kelib, dunyo miqyosidagi ko'pgina oilaviy kompaniyalar o'zlarining aksiyalarini (aksiyalar erkin sotuvda fond birjalariga joylashtirilgan) qisqartirgan bo'lsa ham, ta'sisчилarning avlodlari boshqaruvda ishtirok etadilar va tez-tez firmalarini nazorat qiladilar.

Muassislarning avlodlari aksiyalarning katta aksiyalarini saqlab turishi davom etadigan korxonalar ularga raqobatbardosh ustunlikka ega. Bu afzallik avlodlar tomonidan qat'iy saqlanib qolmoqda. Bu sarmoyadorlar uchun juda qiziqdir, chunki ularning daromadlarining barqarorligi kapitalning bir qismini kafolatlaydi.

Bir necha avlodlar faoliyat ko'rsatadigan va ularning uzluksizligini ko'rsatadigan oilaviy kompaniya foydasiga bir necha omillar mavjud. Birinchisi - uzoq muddatli maqsadlar va ularning izlanishlari. Qisqa muddatli vazifalarni bajarishda darhol rejalar va muqarrar xatolarga yo'l qo'ymaslik korxonani ma'lum bir strategik yo'nalishdan olib chiqmaydi.

Ikkinchisi esa boshqaruvga muqarrar ravishda konservativ yondashuvdir. Bir tomondan, bu rivojlanish dinamikasini biroz qisqartiradi, ammo bunday korxonalarning qarzlari ancha past, investitsiyalar muvozanatli va ishonchli

⁶ Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.⁶


loyihalarda. Bundan tashqari, ushbu turdagi firmalarning taniqli brendlari va mahsulotlariga, hissiy majburiyatni rag'batlantirish, xodimlarning tabiiy aylanmasi minimallashtiriladi.

Muvaffaqiyatga erishgan oilaviy kompaniya mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhimdir. Ushbu korxonalardan milliy yalpi ichki mahsulotning sher ulushi an'anaviy tarzda shakllantirilib, aholining katta qismi ish bilan ta'minlanadi, yangilar doimiy ravishda tashkil etiladi. Bunday korxonalarning eng muhim xususiyatlaridan biri kelajak va chidamlilik yo'nalishi. Bu xodimlarni yanada mustahkamlash, ko'p yillik hamkorlikni, mijozlarga yaqinlikni ta'minlaydi.

3. O'zbekistonda oilaviy korxonalar va ularni boshqarish

O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir.

Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin. Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak.



2-rasm. Oilaviy korxonani boshqarish tizimi⁷

⁷ Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

Oila boshlig'i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to'lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarning erlari (xotinlari), tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog'a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo'lishi mumkin. Bir oilaviy korxona ishtirokchisi bir vaqtning o'zida boshqa oilaviy korxona ishtirokchisi bo'lishi mumkin emas.

Yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda oilaviy korxona nomidan uning boshlig'i ish ko'radi. Oilaviy korxona ishtirokchilaridan biri uning boshlig'i bo'lishi mumkin, unga oilaviy korxonaning barcha ishtirokchilari bir ovozdan ish muomalasida o'z nomlaridan ishtirok etish huquqini beradi. Oilaviy korxona boshlig'i vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotgan yoki uzoq vaqt bo'lmagan taqdirda, u o'z vazifasini vaqtincha bajarib turish vakolatini oilaviy korxonaning qolgan ishtirokchilari bilan kelishgan holda ulardan biriga berishga haqli.

Oilaviy korxona ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi oilaviy korxonaning yuqori boshqaruv organidir. Oilaviy korxona ishtirokchilari umumiy yig'ilishining vakolatlariga quyidagilar kiradi: oilaviy korxonaning ta'sis shartnomasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish; oilaviy korxona boshlig'ini saylash; oilaviy korxona faoliyatining turlarini belgilash; oilaviy korxonaning ustav fondini belgilash va uning miqdoriga o'zgartishlar kiritish; oilaviy korxona boshlig'ining oilaviy korxona moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotini ko'rib chiqish; ta'sis shartnomasiga muvofiq oilaviy korxonaning foydasini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish; oilaviy korxonaning mol-mulkiga doir yirik bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish.

7 mavzu: Xolding kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi

Reja:

1. Xolding tushunchasi

2. Xoldingni boshqarish

3. O'zbekistonda xolding kompaniyalari

4. Moliyaviy xoldinglar

1. Xolding tushunchasi


Xolding kompaniyasi (xolding) - bu tijorat tashkilotlari tizimi bo'lib, u "shirkat shirkati" ni o'z ichiga oladi va uning sho"ba va (yoki) sho"ba korxonalari aktsiyalarida va (yoki) aktsiyalarida nazorat ulushiga ega. Boshqarish kompaniyasi nafaqat boshqaruvni, balki ishlab chiqarish funktsiyalarini ham bajarishi mumkin. Tugallanadigan kompaniya o'z faoliyatini boshqa (asosiy) iqtisodiy shirkat yoki shirkat tomonidan belgilanadigan yoki

ustav fondida ustun ishtiroki yoki ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yoki boshqa tarzda belgilagan xo'jalik shirkati deb e'tirof etiladi.

Xolding kompaniyalari butun dunyoda barcha mamlakatlarning integratsiyalashuvi jarayoni uchun umumiy ta'sir ostida paydo bo'ladi. Nima uchun kompaniyalari xavotirda, konglomerada, ishonchda bo'lish o'rniga xoldingda birlashadilar? Xoldinglar muayyan maqsad uchun tuziladi. Bu, odatda, bozorning yangi tarmoqlarini egallash va (yoki) xarajatlarni qisqartirishdir. Bu omillar ham, butun tizim samarali ishlashini, nafaqat boshqaruv kompaniyasi, uning kapitallashuv narxini oshiradi va bu erishish uchun. Bu oddiy aktsiyalarning qiymati ham faqat ortib bormoqda, deb ta'kidlash lozim bo'lsa, butun tizim samarali ishlashi (uning qismlari, barcha - boshqaruv kompaniyasi va uning sho'ba). Yaqinda korporativ dunyo birlashish va sotib olish to'liqini bilan to'lib ketdi. hamma narsa avtomobil, aloqa, energetika, kompyuter olimlar, moliyachilar kombinati.

Keling, qanday qilib savdo tashkilotlarini xolding kompaniyalariga birlashtirishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

(a) Xolding kompaniyalari, masalan, bir xil turdagi biznesni birlashtirgan kompaniyalar ustidan ketma-ket qo'shilish yoki nazorat qilish yo'li bilan tuzilishi mumkin (mashinasozlik, oziq-ovqat sanoati va boshqalar). Bu "gorizontal integratsiya" deb ataladi.



1-rasm. Vertikal xolding⁸

⁸ Xodiev B.YU., Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish" O'quv qo'llanma. -T.: 2011 y.

(b) Xolding kompaniyalari shakllanishining ikkinchi usuli - yagona texnologik tsikldagi korxonalarni birlashtirish (xomashyodan tayyor mahsulotlarga). Bu "vertikal integratsiya" deb ataladi.

v) Xolding kompaniyalari tashkil etilishi mumkin va korxonalar ketma-ket yaratilib, keyinchalik guruhga qo'shilishi mumkin. Shunday qilib, "po'lat pudratchi" Andrew Karnegi 130 yil oldin sodir bo'lgan. O'zining tarjimai holida u yozganidek, u yaratgan korxona samarali bo'lishini isbotlaganidan so'ng, uning guruhiga qo'shilgan.

(d) Amalda nafaqat individual tijorat tashkilotlari, balki xolding kompaniyalari ham birlashtirilishi mumkin. Misol uchun, Germaniyaning mashhur po'lat ishlab chiqaruvchi kontserni va shunga o'xshashlarning Niderlandiyadagi birlashuvi quyidagi tarzda amalga oshirildi. Ularning egalari: KN Hoogovens NV va Hoesch AG kompaniyalari teng huquqli asosda (50% x 50%) Estel NV boshqaruv kompaniyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, ularda tashviqotning 100% aktsiyalari o'z depozitlariga o'tkazildi.

(e) Transmilliy va milliy kompaniyalar shu kabi sxemalar bo'yicha birlashtirilgan. Belgiya va Hindistonning yirik pivo tashvishlari birlashtirilgach, quyidagi sxema qo'llanildi. SUN-Interbrew (Sun-Brewing asosida) shirkati asos solgan holda, ularning 34% aktsiyalarini oldi. Ustav kapitaliga qo'shadigan hissasi sifatida Belgiyaliklar Rossar, Stella Artois pivosi va Donna 40 mln. Indians - korxonalar va tarqatish tarmog'ining aktsiyalari. Bundan tashqari, yangi kompaniya aktsiyalarining 32% ochiq obuna orqali sotiladi.



2-rasm. Gorizontal xolding⁹

2. Xoldingni boshqarish

⁹ Xodiev B.YU., Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish" O'quv qo'llanma. - T.: 2011 y.

Yig'ilishda, direktorlar kengashi, ijrochi boshqarish orqali xolding kompaniyasi boshqaruvi qonunlari, shuningdek, har qanday aktsiyadorlik kompaniyasi muvofiq. Biroq, tuzilmalarni o'tkazish uchun asosiy aktsiyadorlar aniq belgilangan va ular butun guruh nazorat (nazorat birligi orqali) amalga oshirish, deb. xususiyatlari va guruh hajmi nazorat qilish tartib doirasida ajratish bor. Aslida, eng yuqori darajada ushlab (va murakkab HOLDINGLAR barcha darajalarda) hajmi nazorat funktsiyalari huquqiy imkoniyatlar va har bir darajada egalarining imtiyozlarni qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin.



3-rasm. Xoldingni boshqarish¹⁰

Birlashmalarning turli xil turlari boshqaruvning turli qismlarini ishlatishi mumkin. Boshqaruvning minimal miqdori (boshqaruv tarkibiy qismlari) kartelda amalga oshiriladi: uyushma tarkibidagi barcha korxonalar uchun umumiy marketing va biznes rejalashtirish; moliyaviy va sanoat guruhlarida yuqori darajadagi boshqarish darajasi, marketing va biznes rejalashtirishdan tashqari, moliyaviy boshqaruv ham amalga oshiriladi; bir sindikatda, moliyaviy boshqaruv o'rniga avvalgi tuzilish bilan solishtirganda, uyushma tarkibidagi barcha korxonalar uchun logistika va umumiy boshqaruv tizimi kabi tarkibiy qismlar mavjud; sanoat va tijorat guruhlarida moliyaviy boshqaruv logistika va yagona boshqaruv tuzilmasi bilan birlashtirilgan.

3. O'zbekistonda xolding kompaniyalari

O'zbekiston Respublikas Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 12 oktyabrdagi 398-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xoldinglar to'g'risida"gi Nizomga asosan, aktivlari tarkibiga boshqa korxonalarning aksiyalari nazorat paketlari kiradigan aktsiyadorlik jamiyati xolding hisoblanadi. Aksiyalar (paylar, ulushlar)ning nazorat paketi o'zida korxona sarmoyasida qatnashishning istalgan shaklini

¹⁰ Xolding kompaniyalarda korporativ boshqaruv тизими

ifodalaydi. Aksiyalarning nazorat paketi mavjudligi to'g'risidagi qaror ta'sis hujjatlarining xususiyatlari va korxona sarmoyasi tuzilmasi hisobga olingan holda monopoliyaga qarshi organ tomonidan qabul qilinadi.

Aksiyalarining nazorat paketlari xolding aktivlariga kiruvchi korxona sho'ba korxona hisoblanadi. Sho'ba korxonalar mustaqil yuridik shaxs hisoblanadi. Xolding O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan istalgan faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidir. Xolding boshqa xoldingning sho'ba korxonasi bo'lishi mumkin.

Xolding aktivlari:

- a) qimmatli qog'ozlar;
- b) muassislar tomonidan shartnoma asosida berilgan, shuningdek xolding mablag'lari hisobiga sotib olingan yoki hosil qilingan mulklar;
- v) pul mablag'lari va boshqalar hisobidan tashkil topadi.

Xolding xorijiy sarmoya ishtirokida yoki to'liq uning asosida, shu jumladan, xorijiy korxonalar aksiyalari nazorat paketlarini sotib olish yo'li bilan tashkil etilishi mumkin.

Xolding aktivlari tarkibiga, sho'ba korxonalar aksiyalari nazorat paketlari bilan bir qatorda, aksiyalarning paritet paketlari (qatnashchi ikkita bo'lgan taqdirda 50 foiz) va boshqa xo'jalik jamiyatlari sarmoyasida qatnashish paketlari (aksiyalarning nazorat paketlari emas) kirishi mumkin. Xolding amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya faoliyatini amalga oshirishga, shu jumladan, istalgan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotishga haqli bo'ladi.

Sho'ba korxona o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi, bosh xoldingga tegishli bo'lgan aksiyalarning nazorat paketi qiymati ham shu jumlagi kiradi. Bosh xolding ta'sis shartnomasida qayd etilgan shartlarda sho'ba korxonaning qarzlari bo'yicha javob berishi mumkin. Sho'ba korxona o'zining xoldingga tegishli bo'lgan aksiyalari paketi miqdoridan qat'i nazar, biror-bir shaklda xolding aksiyalariga egalik qilishi mumkin emas, garov va trast (ishonilgan mulk) ham shu jumlagi kiradi.

Sho'ba korxonalar aksiyadorlarining umumiy yig'ilishlarida xoldingning vakillari mazkur sho'ba korxona aksiyalarining nazorat paketiga muvofiq ovozga ega bo'ladilar. Ro'yxati ustavda ko'rsatilishi kerak bo'lgan sho'ba korxonalarni rivojlantirishning strategik muhim masalalarini hal etish uchun ustavda darajali ko'pchilik haqidagi norma belgilab qo'yiladi.

Xoldinglar yuridik shaxs hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini

himoya qilish to'g'risida", "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida", "Raqobat to'g'risida"gi qonunlari, mazkur Nizom va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari asosida faoliyat ko'rsatadi. Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, xorijiy yuridik va jismoniy shaxslar xolding muassislari va qatnashchilari bo'lishlari mumkin. Xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning qatnashish xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Xoldingning nomiga "xolding" so'zi qo'shilgan bo'lishi hamda uning turi ("AJ" aksiyadorlik jamiyati) ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

4. Moliyaviy xoldinglar.

Sarmoyasining 50 foizdan ortig'ini boshqa emitentlarning qimmatli qog'ozlari va o'zga moliyaviy aktivlari tashkil etgan xolding moliyaviy xolding hisoblanadi. Moliyaviy xolding aktivlari tarkibiga faqat qimmatli qog'ozlar va o'zga moliyaviy aktivlar, shuningdek xolding boshqaruvi apparati faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun bevosita zarur bo'lgan mol-mulk kirishi mumkin.

Aktivlari tarkibi ta'sis etish paytida ko'rsatib o'tilgan talabga muvofiq kelmaydigan moliyaviy xolding davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida uni bajarish uchun zarur bo'lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishi kerak. Ko'rsatib o'tilgan talabning bajarilmasligi ushbu xoldingning aksiyalari emissiyasi prospektini ro'yxatdan o'tkazgan organning taqdimnomasi asosida xo'jalik sudi tomonidan moliyaviy xoldingni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinishi uchun asos hisoblanadi.



4-rasm. Moliyaviy xolding strukturasi¹¹

¹¹ Xolding kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi

Moliyaviy xoldinglar mutlaq darajada investitsiya faoliyati yuritishga haqlidirlar, ular uchun faoliyatning boshqa turlari taqiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi va uning hududiy organlari moliyaviy xoldinglar ustav fondiga korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish tartibida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlari ustav sarmoyasining 20 foizidan ortig'ini tashkil etuvchi aksiyalar paketini qo'shishga haqli emaslar.

8-mavzu: Moliya-sanoat guruhlarida korporativ boshqaruv tizimi

Reja:

8.1. Moliya-sanoat guruhi tushunchasi

8.2. Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish xususiyatlari

8.3. O'zbekistonda moliya-sanoat guruhleri

8.1. Moliya-sanoat guruhi tushunchasi

Moliya-sanoat guruhi (MSG) sanoat korxonalari bilan moliya institutlari bilan o'zaro ta'sis etilgan iqtisodiy va moliyaviy sheriklik asosida birlashadi. Ehtimol, tijorat tashkilot shaklida.

Bu asosiy yoki sho"ba korxonalar sifatida faoliyat yuritadigan yoki ularning aktivlarini texnologik yoki iqtisodiy integratsiya uchun birlashtirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (odatda yuridik shaxslar) majmui. Moliyaviy va sanoat guruhlarining eng muhim turi - umumiy moliyaviy yo'l-yo'riqlar ostida bir nechta savdo va sanoat korxonalari birlashishi.

Moliya-sanoat guruhi (MSG) bir tomondan erkin fondlar (banklar, moliya va investitsiya jamg'armalari va boshqalar) va boshqa tomondan, investitsiyalarga va boshqa qarz mablag'lariga muhtoj bo'lgan korxona va tashkilotlarga degani.

Moliya-sanoat guruhi uch turdagi tashkilotlarni birlashtiradi:


- 1) sanoat;
- 2) savdo-sotiq;
- 3) kredit va moliya tashkilotlari.

Moliya-sanoat guruhi - asosiy va qo'shma korxona sifatida faoliyat yuritadigan yoki moddiy va moddiy bo'lmagan aktivlarni to'liq yoki qisman birlashtiradigan investitsiya va boshqa loyihalarni va dasturlarni takomillashtirishga qaratilgan dasturlarni texnologik yoki iqtisodiy integratsiyalash uchun FIGni yaratish to'g'risidagi bitim asosida to'liq yoki qisman birlashtiradigan yuridik shaxslar majmui raqobatbardoshlik va tovar va xizmatlar sotish bozorlarini kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish.

8.2. Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish xususiyatlari

Guruhlardan farqli o'laroq, moliyaviy guruhga a'zo kompaniyalarning pul mablag'larini boshqarish bo'yicha bir yoki bir nechta bank rahbarlik qiladi va ularning faoliyatining barcha yo'nalishlarini muvofiqlashtiradi. Har bir firma savdo operatsiyalarida mustaqil ravishda harakat qiladi.

Moliyaviy va sanoat guruhlarini tashkil etishning asosiy maqsadi raqobatbardoshlik va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ratsional texnik aloqalarni yo'lga qo'yish, investitsiyalarni jalb qilish, sotish bozorlarini kengaytirish, yangi ish joylarini yaratishdir.



Moliya-sanoat guruhlari uchta shaklda yaratilgan:

- 1) davlat korxonasi ishtirokida hukumat qarori bilan;
- 2) xususiy tadbirkorlarning shartnomaviy assotsiatsiyasi asosida;
- 3) hukumatlararo bitimlar bo'yicha.

Bundan tashqari, ular aktsiyalar paketini ishtirokchilarning birining ishonchli boshqaruvchisiga o'tkazish yoki boshqa korxonalarning aktsiyalar paketining ishtirokchilaridan birining moliyaviy va sanoat guruhiga a'zo bo'lishiga erishish yo'li bilan yaratilishi mumkin.

Moliya-sanoat guruhlarining asosiy xususiyatlari (MSG):

- MSGning boshida moliyaviy kompaniya;
- Ba'zida MSG savdo uyining tuzilishiga asoslanadi;
- turli tarmoqlardagi korxonalardan iborat sanoat sektorining ishtiroki muhim rol o'ynaydi;
- Birlashtirilgan narx siyosati;

¹² Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.

- bitta mulkka ega;
- tashkiliy birlik va huquqiy mustaqillik.

Transmilliy MSG ni yaratish nazarda tutilgan. Birinchi bosqichda - Rossiya MSG ni yaratish, ikkinchisi - boshqa davlatlarning tuzilmalarini investitsiyalash hisobiga kengaytirish.

MSG bir ixtiyoriy ishtirokchilari investitsiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, xususiy pensiya fondlari, shuningdek boshqa har qanday tashkilot o'z ichiga olishi mumkin, deb.

Moliya-sanoat guruhini tashkil etishning birinchi bosqichi mahalliy harakatlarni rivojlantirishdir. tashkiliy guruhlar bilan bog'liq majburiy mahalliy hujjatlarga moliya-sanoat guruhlari, barcha turdagi, ya'ni loyiha Anjir operatsiyalari, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa natijalar kutilgan maqsad va vazifalari, sarmoyaviy va boshqa loyihalar va dasturlar haqida zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar. tashkiliy loyiha odatda izohlovchi va shakl kelajagi ish uchun texnik-iqtisodiy o'rganishni o'z ichiga oladi.

Moliyaviy va sanoat guruhidagi shartnoma turi bo'yicha mahalliy hujjatlarga MSG va markaziy kompaniya ustavini tuzish to'g'risidagi bitim ham kiradi. MSG ni yaratish to'g'risidagi bitim birgalikdagi faoliyat to'g'risida (sodda sheriklik) bitimning o'zgarishi hisoblanadi. oddiy hamkorlik shartnomasi uchun zarur muhim shart-sharoitlar bilan bir qatorda, u MSG, tartibi va kompaniyaning markaziy ofislaridan sharoitida, shakllantirish tartibi, Boshqaruvchilar MSG kengashi, ishtirokchilar, doirasi, shartlari va uyushmasi aktivlari sharoitlar ro'yxatini o'zgartirish tartibi anhudan doirasi nomi haqida ma'lumot bo'lishi kerak , ishtirokchilar birlashmasining maqsadi, shartnoma muddati. hisobga, tarmoq, mintaqaviy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda, muayyan moliyaviy-sanoat guruhlari maqsad va vazifalari asosida ishtirokchilar tomonidan tashkil etilgan moliyaviy va sanoat guruhi tashkil etish to'g'risidagi bitim boshqa shartlari.

8.3. O'zbekistonda moliya-sanoat guruhlari

O'zbekistonda moliya-sanoat guruhlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 12 sentyabrdagi 354-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Moliya-sanoat guruhlari to'g'risida"gi Nizomga asosan faoliyat yuritishi belgilangan edi. Lekin respublikada moliya-sanoat guruhlari rivojlanmaganligi sababli, ushbu nizom 2001 yilda o'z kuchini yo'qotgan. Unga muvofiq, moliya-sanoat guruhi o'z qatnashchilarining moddiy va moliya resurslarini qo'shish yo'li bilan kapitallarni birlashtirish asosida foyda (daromad) olish, ishlab chiqarishning raqobat qilish qobiliyatini va samaradorligini oshirish, maqbul texnologiya va kooperatsiya aloqalarini tashkil etish, eksport imkoniyatlarini ko'paytirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini rivojlantirish hamda investitsiyalarni jalb qilish maqsadida faoliyat yurituvchi kredit-moliya muassasalari, investitsiya muassasalari, korxonalar, boshqa muassasalar va tashkilotlarning xo'jalik uyushmasidir.

Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi "O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida", "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, mazkur Nizom va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, har qanday tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar, shuningdek, kredit-moliya va boshqa muassasalar, investitsiya muassasalari, tashkilotlari, shu jumladan, xorijiy muassasalar, investitsiya muassasalari va tashkilotlari moliya-sanoat guruhi qatnashchilari bo'lishlari mumkin. Tijorat banklari moliya-sanoat guruhlarini qatnashchilari bo'lishlari mumkin. Bunda moliya-sanoat guruhi ustav fondidagi tijorat banklarining mol-mulki ulushi shu fondning 10 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Moliya-sanoat guruhi qatnashchilari bo'lgan banklar soni cheklanmaydi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari moliya-sanoat guruhi qatnashchilari bo'lishlari mumkin emas.

Moliya-sanoat guruhi qatnashchilari yuridik shaxs maqomini saqlab qoladilar. Moliya-sanoat guruhlarini: uning qatnashchilari tomonidan ixtiyoriylik tartibida yoki guruhning bir qatnashchisi tomonidan o'zi sotib oladigan boshqa qatnashchilar aksiyalari paketlarini birlashtirish yo'li bilan; Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra; hukumatlararo bitimlar asosida tashkil etiladi.

Moliya-sanoat guruhlarini ixtiyoriylik tartibida yoki aksiyalar paketlarini birlashtirish asosida tashkil etish quyidagi yo'sinda amalga oshiriladi:

guruh qatnashchilari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda ochiq yoki yopiq turdagi aksionerlik jamiyatini, shuningdek, xoldingni ta'sis etish;

guruh qatnashchilari tomonidan guruh tarkibiga kiruvchi korxonalar va moliya-kredit muassasalarining o'zlariga tegishli bo'lgan aksiyalar paketlarini guruh qatnashchilaridan biriga vakolatli boshqarishga berish;

guruh qatnashchilaridan biri tomonidan boshqa korxonalar, shuningdek, guruh qatnashchisi bo'layotgan muassasa va tashkilotlar aksiyalari paketlarini sotib olish.

Davlatga tegishli bo'lgan aksiyalar paketlari, davlatga tegishli bo'lgan aksiyalar paketlarini vakolatli boshqarishga berilishi yoki ularning sotib olinishi mazkur bandga muvofiq moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishga olib kelganda ularning miqdori Vazirlar Mahkamasi tomonidan monopoliyaga qarshi qonunchilik talablarini hisobga olgan holda belgilanadi. Guruh qatnashchilarining tarkibi faqat davlat korxonalari, shuningdek, byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlardan shakllantirilayotgan hollarda moliya-sanoat guruhlarini Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra tashkil etiladi. Hukumatlararo bitimlar asosida tashkil etilayotgan moliya-sanoat guruhlarining O'zbekiston Respublikasi tomonidan bo'lgan qatnashchilari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishda:

ustav kapitalida davlat mulki ulushi, shuningdek, jamoatchilik birlashmalari, xayriya yoki boshqa jamoatchilik fondlari va ular korxonalarining mulki 25 foizdan ortiq bo'lgan korxonaga aksiyalarning sotib olinishiga;

moliya-sanoat guruhi qatnashchilari tomonidan davlat mulki ulushi 25 foizdan ortiq bo'lgan kapitalning ixtiyoriy tartibda birlashtirilishiga;

kapital tarkibidagi moddiy aktivlari 50 foizdan kam bo'lgan xo'jalik uyushmalari, shuningdek, xoldinglarning moliya-sanoat guruhida qatnashishlariga;

moliya-sanoat guruhi qatnashchilari tomonidan aksiyalarga ikki yoqlama egalik qilishga;

guruhga kiruvchi kredit-moliya muassasasiga yoki investitsiya muassasasiga moliya-sanoat guruhining har qanday qatnashchisi bo'lgan korxonaning 10 foizdan ortiq aksiyalariga egalik qilishiga, shuningdek, shu guruhga kiruvchi korxonalar aksiyalariga ko'rsatib o'tilgan muassasalar aktivlarining 10 foizidan ortiq qo'shilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Moliya-sanoat guruhlarini tashkil etishda monopoliyaga qarshi kurash organi bilan oldindan kelishmasdan:

moliya-sanoat guruhi qatnashchilari tarkibiga monopol korxonalar ro'yxatiga kiritilgan korxonalarning kirishlariga;

moliya-sanoat guruhi tomonidan boshqa moliya-sanoat guruhi qatnashchilari bo'lgan korxonalar aksiyalarining sotib olinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat mulki ulushi 25 foizdan ortiq bo'lgan davlat korxonalari, shirkat (jamoat) korxonalari, shuningdek, davlat byudjetidan mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilot va muassasalar moliya-sanoat guruhlarida qatnashchilari uchun davlat mulkini tasarruf etish vakolati berilgan organ roziligi talab qilinadi.

9-mavzu: Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: taftish komissiyasi

Reja:

9.1. Taftish komissiyasi faoliyati tushunchasi

9.2. Nazorat: taftish komissiyasi funktsiyalari

9.3. Nazorat: taftish komissiyasining huquq va majburiyatlari

9.1. Taftish komissiyasi faoliyati tushunchasi

Taftish komissiyasi korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiladi.

Taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari akstiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi.

Taftish komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, AJ ustaviga, Nizomga va akstiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadigan hamda taftish komissiyasi va uning a'zolari

faoliyatiga taalluqli bo'lgan O'zRVBning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga amal qiladi.

Taftish komissiyasi akstiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylanadi. Ovoz berish taftish komissiyasi a'zolariga har bir nomzod bo'yicha alohida o'tkaziladi. Aniq shaxsni taftish komissiyasi tarkibiga kiritish to'g'risidagi qaror AJning ovoz beruvchi akstiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan akstiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Taftish komissiyasi tarkibiga kamida uch kishi kiradi. Taftish komissiyasi a'zolari miqdori toq bo'lishi kerak.

Ayni bir shaxs O'zRVBning taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida O'zRVB Kuzatuv kengashining (keyingi o'rinlarda – Kuzatuv kengashi) a'zosi bo'lishi, shuningdek AJda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

Taftish komissiyasi o'z tarkibidan rais va kotibni saylaydi.

Taftish komissiyasi raisi majlislarni chaqiradi va o'tkazadi, taftish komissiyasining joriy ishini tashkil qiladi, Kuzatuv kengashi majlislarida, akstiyadorlar umumiy yig'ilishida uning nomidan vakil bo'ladi, Komissiya nomidan chiqadigan hujjatlarga imzo chekadi.

Taftish komissiyasi kotibi majlislar bayonnomalari yuritilishini tashkil etadi, taftish komissiyasi xulosalarini tegishli manzillarga etkazadi, komissiya nomidan chiqadigan hujjatlarga imzo chekadi.

Ajning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish taftish komissiyasining, akstiyadorlar umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki ovoz beruvchi akstiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi akstiyadorning (akstiyadorlarning) talabiga ko'ra Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra AJning mansabdor shaxslari AJning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etadi.

Taftish komissiyasi akstiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilishga haqlidir.

9.2. Nazorat: taftish komissiyasi funktsiyalari

Taftish komissiyasining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- AJning moliyaviy hujjatlarini tekshirish;
- AJ nomidan tuzilgan shartnomalar, amalga oshirilgan bitimlar, kontragentlar bilan hisob-kitoblarning qonun hujjatlariga muvofiqligini tekshirish;
- yuritilayotgan buxgalteriya va statistika hisobining me'yoriy qoidalarga muvofiqligini tahlil qilish;

- AJning moliyaviy holatini, uning to'lov qobiliyatini, aktivlarning likvidligini tahlil qilish, O'zRVBning iqtisodiy holatini yaxshilash bo'yicha O'zRVB boshqarish organlariga tavsiyalar ishlab chiqish;

- to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida byudjetga to'lanishini, dividendlarni hisoblash va to'lashni, boshqa majburiyatlarning bajarilishini tekshirish;

- soliq organlari, davlat statistika organlari va qonunchilikka muvofiq boshqa organlarga taqdim etiladigan O'zRVB buxgalteriya balanslari, hisobotlari to'g'ri tuzilganligini tekshirish;

- Kuzatuv kengashi yoki Ijroiya organi tomonidan qabul qilingan qarorlarning O'zRVB ustaviga, Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizomga va akstiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlariga muvofiqligini tekshirish;

- akstiyadorlar umumiy yig'ilishlari qarorlarini tahlil etish, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlaridan tafovut qilgan taqdirda ularni o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish.

9.3. Nazorat: taftish komissiyasining huquq va majburiyatlari

Taftish komissiyasining huquq va majburiyatlari

. Taftish komissiyasi o'z funkstiyalarini tegishlicha bajarish maqsadida quyidagi huquqlarga egadir:

- AJ ijroiya organidan komissiya ishi uchun zarur bo'lgan barcha materiallar va olish;

- AJning moliyaviy-xo'jalik faoliyatida aniqlangan xatolarni hal qilish AJ boshqaruv organlarining vakolatiga kirgan hollarda, vakolatli shaxslardan Kuzatuv kengashi, navbatdan tashqari akstiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirishni talab qilish;

- AJ xodimlaridan, shu jumladan istalgan mansabdor shaxslaridan, taftish komissiyasi vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha tushuntirishlar olish;

- qonunchilik hujjatlari va AJning ichki me'yoriy hujjatlari talablarini buzgan AJ xodimlarining javobgarligi to'g'risidagi masalani AJ boshqaruv organlari muhokamasiga qo'yish.

Taftish komissiyasi a'zolari maslahat ovozi berish huquqi bilan Kuzatuv kengashi majlislarida ishtirok etishi mumkin.

Tekshirishlarni o'tkazish paytida taftish komissiyasi a'zolari tekshiruv mavzuiga taalluqli bo'lgan barcha materiallar va hujjatlarni sinchiklab tekshirishga majburdirlar. Noto'g'ri xulosalar uchun taftish komissiyasi a'zolari akstiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadigan mezonlarda javobgar bo'ladilar.

Agar unga berilgan vakolatlarning amal qilish muddati mobaynida taftish komissiyasining a'zosi unga yuklatilgan funkstiyalarini bajarishini to'xtatsa, bu haqda u Kuzatuv kengashini taftish komissiyasidagi ishini to'xtatishidan bir oy oldin xabardor qilishi shart. Bu holda akstiyadorlar umumiy yig'ilishi eng yaqin vaqtda o'tkaziladigan majlisida taftish komissiyasining a'zosini almashtiradi.

Taftish komissiyasi o'z vakolatiga taalluqli masalalarni o'z majlislarida ko'rib chiqadi. Taftish komissiyasi majlislari tasdiqlangan reja bo'yicha, shuningdek tekshiruv yoki taftish boshlanishi oldidan va ularning natijalari bo'yicha o'tkaziladi.

Taftish komissiyasining shoshilinch qarori talab etiladigan qonunbuzarliklar aniqlangan takdirda taftish komissiyasi a'zosi komissiyaning majlisini zudlik bilan chaqirishni talab qilishi mumkin.

Unda komissiya a'zolarining kamida ellik foizi ishtirok etganda, taftish komissiyasining majlisi vakolatli, deb hisoblanadi.

Taftish komissiyasining har bir a'zosi bir ovozga ega. Taftish komissiyasining xulosalari komissiya yig'ilishida qatnashayotgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi. Ovozlar tengligida taftish komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Taftish komissiyasi a'zolari komissiya qaroriga rozi bo'lmaganlarida majlis bayonnomasida alohida fikrlarini qayd ettirishga va ularni O'zRVB boshqaruv organlari e'tiboriga etkazishga haqlidirlar.

AJning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

- AJning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.
- Ushbu xulosa akstiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida eshitiladi.

Taftish komissiyasi AJda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va O'zRVB ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi.

10-mavzu: Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: tashqi auditor

Reja:

10.1. Tashqi auditorlik faoliyati tushunchasi

10.2. Tashqi auditorlik faoliyati tashkil etish xususiyatlari

10.3. Tashqi auditorlarning huquq va majburiyatlari

16.1. Tashqi auditorlik faoliyati tushunchasi

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuniga](#) muvofiq ishlab chiqilgan va majburiy auditorlik

tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektdan jarima undirishning yagona tartibini belgilab beradi.

2. Nizomning amal qilishi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tatbiq etiladi.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlashi jarima solish uchun asos hisoblanadi.

Quyidagilar:

hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha yillik moliyaviy hisobot auditorlik tekshiruvidan o'tkazilmasligi;

auditorlik xulosasi mavjud emasligi xo'jalik yurituvchi sub'ektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlashi deb e'tirof etiladi.

Jarima qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladi. Bunda xo'jalik sub'ektining oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlarining yigirma foizidan ortiq bo'lgan yalpi jarima xo'jalik sub'ektiga jarima solish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab undiriladigan summani olti oy mobaynida har oyda bo'lib-bo'lib to'lash huquqi berilgan holda undirib olinadi.

1. Jarima stavkalari tabaqalashtirilgan va majburiy tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobot yili oxirida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi tushumi miqdoriga qarab belgilanadigan miqdorlarda undirib olinadi.

4-jadval

Jarima miqdori*	Bir yilda mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi tushum miqdori (QQS ham shu jumlag kiridi)**
Eng kam oylik ish haqi miqdorining 50 baravari	eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravarigacha
Eng kam oylik ish haqi miqdorining 75 baravari	eng kam oylik ish haqi miqdorining 500 baravaridan 15 ming baravarigacha
Eng kam oylik ish haqi miqdorining 100 baravari	eng kam oylik ish haqi miqdorining 15 ming baravaridan ortiq

Jarima miqdorini aniqlashda eng kam oylik ish haqining jarima solish to'g'risida¹³

* Jarima miqdorini aniqlashda eng kam oylik ish haqining jarima solish to'g'risida qaror chiqarilgan sanadagi miqdoridan foydalaniladi.

** Byudjetdan tashqari va xayriya jamg'armalari uchun yalpi tushum deganda amaldagi tushumlar, shu jumladan a'zolik badallari tushuniladi.

9. To'lanadigan jarimalar to'liq miqdorda tegishli mahalliy byudjetiga o'tkaziladi.

16.2. Tashqi auditorlik faoliyati tashkil etish xususiyatlari

¹³ "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

Tashqi auditorlik faoliyati tashkil etish «[Auditorlik faoliyati to'g'risida](#)» va «[Faoliyatning ayrim turlarini listenziyalash to'g'risida](#)»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi hududida auditorlik faoliyatini listenziyalash tartibini belgilab beradi.

Auditorlik faoliyati auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (listenziya) mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi, auditorlik tashkilotlarining kasb xizmatlari ko'rsatishlari bundan mustasno.

Auditorlik faoliyatini listenziyalashni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (keyingi o'rinlarda — listenziyalovchi organ deb ataladi) amalga oshiradi.

Auditorlik tashkilotining arizasiga ko'ra listenziya auditorlik tekshiruvlarining quyidagi turlarini amalga oshirish uchun beriladi:

faqat o'z tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga;

xo'jalik sub'ektlarini o'z tashabbusiga ko'ra va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga, akstiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlari bundan mustasno;

barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga.

Listenziyalovchi organning auditorlik faoliyatini amalga oshirishga listenziya berish, berishni rad etish, uning amal qilishini tugatish, uning amal qilishini o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatib turish yoki listenziyaning amal qilishini tiklash, shuningdek uni bekor qilish to'g'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

16.3. Tashqi auditorlik tashkilotiga nisbatan qo'yiladigan listenziya talablari va shartlari

Quyidagilar auditorlik faoliyatini amalga oshirishda listenziya talablari va shartlari hisoblanadi:

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining [Qonuniga](#), auditorlik faoliyati standartlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

listenziya olinayotganda va auditorlik faoliyati amalga oshirilayotganda mazkur Nizomda nazarda tutilgan tartibda to'liq shakllantirilgan ustav kapitaliga ega bo'lish;

faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish;

auditorlik tashkiloti mas'uliyatini sug'urta qilish polisiga ega bo'lish;

auditor tomonidan auditorlik faoliyatini faqat bitta auditorlik tashkilotida amalga oshirish;

shtatda auditorlar sonining mazkur Nizomda nazarda tutilgan miqdorda bo'lishi;

listenziya turiga muvofiq shtatdagi auditorlarda xalqaro buxgalter sertifikatining bo'lishi;

auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida olingan axborotning sir saqlanishini ta'minlash;

auditorlik xizmatlari ko'rsatishda shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish;

auditorlik tashkiloti rahbari lavozimiga faqat ushbu auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorni tayinlash;

auditorlik tashkiloti rahbarining uch yilda bir marotaba listenziyalovchi organda attestastiyadan o'tishi;

auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqillikni ta'minlash;

auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq auditorlik hisoboti tuzish va auditorlik xulosasi berish;

auditorlik tashkilotlarida ichki standartlarning mavjudligi;

o'z pochta manzili o'zgargani to'g'risida listenziyalovchi organni 10 kun muddatda xabardor qilish;

auditorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni bir yilda bir marta, belgilangan shaklda listenziyalovchi organga taqdim etish, shuningdek auditorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq boshqa axborotlarni listenziyalovchi organ talabi bo'yicha taqdim etish;

auditorlar ishlari sifatining nazoratini ta'minlash;

auditorlarning bir yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tishini ta'minlash;

auditorlik tashkiloti rahbari almashganligi va (yoki) auditorlar tarkibi o'zgarganligi to'g'risida listenziyalovchi organni 5 kun muddatda xabardor qilish;

auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklovlarga rioya qilish.

11-mavzu: Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: ichki audit xizmati

Reja:

11.1. Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida tushuncha

11.2. Korxonalardagi ichki audit xizmati tashkil etish xususiyatlari

11.3. Korxonalardagi ichki auditorlarning huquq va majburiyatlari

11.1. Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida tushuncha

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2006 yil 27 sentyabrdagi PQ–475-son [qaroriga](#) muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan korxonalarda, shuningdek aktivlarning balans qiymati eng kam oylik ish haqining yuz ming baravaridan ortiq bo'lgan akstiyadorlik jamiyatlarida ichki auditni tashkil etishga qo'yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilaydi.

,Korxonalarda qabul qilingan Nizom talablariga ko'ra tijorat banklariga va byudjet tashkilotlariga tatbiq etilmaydi.

Ichki audit — korxona boshqaruvining ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta'sis hujjatlariga va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish va monitoring olib borish yo'li bilan ular ishini nazorat qilish va baholash, ma'lumotlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to'liqliligi va ishonchliligini ta'minlash, xo'jalik operastiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va taomillari, aktivlarning saqlanishi hamda korporativ boshqarish prinstiplari joriy etilishi bo'yicha korxona tarkibiy bo'linmasining (ichki audit xizmati) faoliyati;

ichki audit xizmati — mazkur Nizom talablari hisobga olingan holda korxona Kuzatuvchi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo'linmasi.

Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari va funkstiyalari

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

kuzatuvchi kengashni ishonchli axborot bilan ta'minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo'yicha korxona faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;

ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korxona boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

4. Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funkstiyalari hisoblanadi:

har yili korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq mazkur Nizomning [12-bandida](#) ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);

tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;

buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo'linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda korxonaning kuzatuvchi kengashiga ko'maklashish.

11.2. Korxonalardagi ichki audit xizmati tashkil etish xususiyatlari

Ichki audit xizmatining huquq va majburiyatlari

Ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga egadir:

ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha korxonaning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari,

boshqaruv organlari qarorlari, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), korxona mansabdor va mas'ul shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;

ichki auditni o'tkazishga ko'maklashish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalb etish.

Ichki audit xizmati quyidagilarga majbur:

ichki auditni amalga oshirishda mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

Korxona Nizomining [13—18-bandlarida](#) belgilangan talablarga muvofiq hisobotlar tuzish;

moliya va statistika hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliligini tekshirish;

ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya qilish;

korxonaga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarar etkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda darhol korxonaning kuzatuvchi kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;

aktivlarni xatlovdan o'tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.

Ichki audit xizmati qonun hujjatlariga va korxonaning ta'sis hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ichki audit xizmatiga qo'yiladigan talablar

Ichki audit xizmati xodimlari oxirgi o'n yilning kamida ikki yilida buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy (shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha) ish stajiga ega bo'lishi va quyidagi talablardan bittasiga javob berishi kerak:

auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lish;

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yoxud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat ta'lim muassasasida olingan oliy iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lish.

Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi auditorlarning respublika professional jamoatchilik birlashmalari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda belgilanadi.

Ichki audit xizmati xodimlarining soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va vazifalarini hal etish uchun etarli bo'lishi kerak hamda korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan sertifikastiyalangan ikki nafardan kam bo'lmagan ichki auditorlardan iborat etib belgilanadi.

Ichki audit xizmatiga ichki auditor sertifikatiga ega bo'lgan uning rahbari boshchilik qiladi.

Har yili ichki audit xizmati rahbari ichki audit xizmati xarajatlarining yillik smetasini tuzadi va uni tasdiqlash uchun korxonaning kuzatuvchi kengashiga taqdim etadi.

Ichki audit xizmati xodimlarining kasb darajasi tegishli listenziyaga ega bo'lgan ta'lim muassasalarida muntazamlilik asosida ularning malakasini oshirish vositasida saqlanishi kerak.

Ichki audit xizmati xodimlari korxona kuzatuvchi kengashi tomonidan har yili attestastiyadan o'tkazilishi kerak.

11.3. Korxonalardagi ichki auditorlarning huquq va majburiyatlari

V. Ichki audit xizmatining mustaqilligi

Quyidagilar ichki audit xizmati mustaqilligining asosiy shartlari hisoblanadi:

ichki audit xizmati rahbarini va uning xodimlarini lavozimga tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod etish, korxona kuzatuvchi kengashining qarorlari bo'yicha ularga ish haqi miqdorini va boshqa to'lovlarni belgilash;

korxona kuzatuvchi kengashiga bevosita bo'ysunish.

Ichki audit o'tkazishga va uni o'tkazish natijalari bo'yicha yig'ma hisobot tuzishga qo'yiladigan talablar

Ichki audit:

tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;

korportiv boshqarish prinstiplariga rioya qilinishini;

buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;

solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini;

moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;

aktivlarning holatini;

ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kuzatuvchi kengash tomonidan korxona ixtisosidan kelib chiqib qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishni o'tkazishning boshqa yo'nalishlari belgilanishi mumkin.

13. O'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha bevosita uni o'tkazgan xodim (xodimlar) tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuziladi.

Bunda:

a) biznes-reja bajarilishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

uning bajarilishining miqdor va sifat ko'rsatkichlari tahlili;

uning bajarilishi ta'minlanmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslar shaxsan ko'rsatilgan holda aniqlangan sabablar bayoni;

b) korporativ boshqarish prinstiplariga rioya qilishni tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

korxona boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaraliligi, uning qatnashchilari (muassislar)ning qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etilishi tahlili;

korporativ boshqarish sohasida qonun hujjatlari buzilishi holatlari bayoni (ta'sis hujjatlariga rioya qilish, umumiy yig'ilishlar va korxona boshqaruv organlari majlislari o'tkazilishi, dividendlar to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi va hokazolar);

v) korxonaning buxgalteriya hisobi va moliya hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

buxgalteriya hisobini yuritish va moliya hisobotini tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

aniqlangan buxgalteriya hisobotini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi;

g) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va majburiy to'lovlar hisob-kitobi to'g'riligini baholash;

soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibi buzilishi holatlarini, soliq solinadigan bazani belgilashda chetga chiqishlarni bayon qilish;

d) moliya-xo'jalik operastiyalarini amalga oshirishda korxona tomonidan qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operastiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini baholash;

ichki audit davomida aniqlangan korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operastiyalarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligini bayon qilish;

e) ichki nazoratning holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etish;

korxona tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq xodimlari ishidagi mavjud kamchiliklar.

Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishini hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda korxona ijro etuvchi organi va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etishga doir tavsiyalarni, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.

14. O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha, korxona Nizomining [12](#) va [13-bandlariga](#) muvofiq, ichki audit rahbari tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi.

15. Yig'ma hisobot:

tahliliy qismni;

yakuniy qismni;

tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga olishi kerak.

16. Yig'ma hisobotning tahliliy qismi korxona Nizomining [12](#) va [13-bandlariga](#) muvofiq, ichki audit xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi kerak.

12-mavzu: Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: korporativ kotib

Reja:

12.1. Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: korporativ kotib to'g'risida tushuncha

12.2 korporativ boshqaruv tizimida nazorat: korporativ kotib faoliyatini tashkil etish xususiyatlari.

12.3. korporativ boshqaruv tizimida nazorat: korporativ kotib vakolatlari, huquq va majburiyatlari.

12.1. Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: korporativ kotib to'g'risida tushuncha

Korxona kotibi - Korporativ boshqaruv kodeksi bo'yicha aktsiyadorlar bilan o'zaro munosabatlarni ta'minlovchi aktsiyadorlik jamiyatining (jamiyat) xodimi, aktsiyadorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha kompaniyaning harakatlarini muvofiqlashtirish va direktorlar kengashining ishini amalga oshiradi.

Korporativ kotib faoliyati biznes rentabelligini oshirish, kompaniya, uning kapitallashuv o'sish investitsiya jozibadorligini oshirish, uning egalarining manfaatlarini jamiyatni rivojlantirish boshqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Korporativ kotibi professional bilim, tajriba va o'z vazifalarini amalga oshirish uchun etarli ko'nikmalarini ma'lum bir darajasi bo'lishi kerak. Korporativ kotibi mukammal va aktsiyadorlar ishonch bo'lishi kerak. Korporativ kotibi kompaniyaning ijro organlari tomonidan etarli mustaqillikka ega va vazifalarni amalga oshirish uchun vakolat va resurslar bo'lishi kerak.

Korporativ kotibi institut XIX asr o'rtalarida Britaniyada paydo. 1855 yilda mamlakat cheklangan javobgarlik (Eng.) Qonuniy edi va 1862 yilda aktsiyadorlik jamiyatlari soni tez o'sishiga olib keldi ingliz kompaniyalarning qonuni (Eng.), Birinchi qabul qildi. 1892 yilda Buyuk Britaniyada 15 mingga jamiyat mavjud edi. ularning korporativ boshqaruvning tashkiliy engillashtirish maqsadida **kompaniya kotibi** lavozimini paydo bo'ldi. 1891 yili Buyuk Britaniyada kotiblar instituti ularning manfaatlarini ifodalash uchun tashkil

etilgan. 1916 yildan boshlab, ayollar korporativ kotib sifatida faoliyat yuritishlari mumkin.

Korporativ kotibning rasmiy vazifalari

Korporativ kotibning mas'uliyat ro'yxatini quyidagilarga kiritish tavsiya etiladi.

Kompaniyaning bo'linmalari va mansabdor shaxslarining qonunchilik talablari, kompaniya ustavini, shuningdek aktsiyadorlarning huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga kafolat beruvchi boshqa hujjatlarning bajarilishini ta'minlash;

aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishlarini tayyorlash va tashkil etish hamda umumiy yig'ilishlar qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylangan komissiya ishini nazorat qilish;

Kompaniya boshqaruvi va boshqa boshqaruv organlari qarorlarini tayyorlash, shuningdek ularning bajarilishini nazorat qilish;

mansabdor shaxslar va aktsiyadorlarga, shuningdek korporativ huquq va boshqaruv masalalari bo'yicha direktorlar kengashiga maslahat berish;

kompaniya to'g'risidagi axborotni, shuningdek kompaniya ustavini va boshqa hujjatlarini oshkor etilishini nazorat qilish;

Kompaniya boshqaruvi va aktsiyadorlar yig'ilishining faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni saqlashni tashkil etish, shuningdek, aktsiyadorlarning axborotga kirishini ta'minlash;

korporativ boshqaruv masalalari va aktsiyadorlar huquqlarini amalga oshirish bo'yicha aktsiyadorlardan olingan arizalar va so'rovlarni hisobga olish va ko'rib chiqish;

qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari va davlat organlari bilan korporativ huquqiy masalalar bo'yicha o'zaro munosabatlar.

12.2 Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: korporativ kotib faoliyatini tashkil etish xususiyatlari.

Korporativ kotibni tayinlash tartibi va uning vazifalari kompaniya ustavida belgilanadi. Etakchi kengash korporativ kotib va uning idorasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlaydi. Korporativ kotibi direktorlar kengashi uchun, funksional bo'ysunadi, ma'muriy yagona ijro etuvchi kompaniya organi (bosh direktori, prezident, kengashi raisi) bo'ysunadi. Korxona kotibi kompaniya direktorlar kengashi qarori bilan lavozimga tayinlanadi [5]. Bunday yuksak darajadagi bo'ysunish korporativ kotibning jamiyatga ta'siri darajasiga bog'liq. Bu ta'sir korporativ kotibga bir qator imkoniyatlardan kelib chiqadi:

aloqa va kengashi (uning qo'mitalari) o'zaro hamkorligini va boshqarish ta'minlash, o'zaro tushunish va bir ma'lumotga boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish yaxshilashga yordam berish;

kompaniyaning boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish;

muhim qarorlar yoki bitimlar tasdiqlash direktorlar kengashi uchun muhtoj taqdirda, masalan, boshqaruvida samaradorlikni ta'minlash;

Jamiat a'zolarining jamiyatning haqiqiy holati va aloqa kanallari haqida xabardorligini ta'minlash.

Malakaviy talablariga ko'ra "Korxona aktsiyadorlik jamiyatining korporativ kotibi" malakaviy xarakteristikasini tasdiqlash korporativ kotib institutini tartibga keltirishda muhim qadam bo'ldi. Vazirlik hujjati korporativ kotibning vazifalarini belgilaydi, bu esa Korporativ boshqaruv kodeksiga qaraganda ancha kengroqdir. Uning lavozimi "menejrlarning lavozimlari" kichik bo'limiga yuklatilgan bo'lib, bu jamiyatni boshqarishda uning rolini oshirishga ishora qiladi.

Korxona kotibi Fuqarolik kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodni, aktsiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi federal qonunlarni, shuningdek aktsiyadorlarning huquqlarini belgilaydigan va korporativ boshqaruv organlari faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va muomalada bo'lish tartibini bilishi kerak. Qoida tariqasida, korporativ kotib korporativ boshqaruv bo'yicha yuqori malakali yuridik yoki iqtisodiy ta'lim va maxsus treningga ega.

Xalqaro amaliyotda korporatsiya kotibi klassik roli (Buyuk Britaniyadagi kompaniya kotibi va AQShda Korporatsiya kotibi) Anglo-Sakson korporativ boshqaruv modelidan kelib chiqqan. Aktsiyalari fond birjasida sotiladigan diversifikatsiya qilingan mulkka ega bo'lgan jamiyatlarda boshqaruvni birgalikda boshqarish direktorlar kengashi orqali amalga oshiriladi. U korporativ boshqaruv organlarining joriy faoliyatiga javobgardir. Boshqaruv kengashi raisi va a'zolari bir-birini almashtiradilar, korporativ kotib esa ko'p yillar davomida kompaniyada ishlayotgan. BP kabi yirik kompaniyalarda korporativ kotib shuningdek, kompaniyaning bosh yuridik xodimi (bosh huquq maslahatchisi) hisoblanadi. Etakchi kengash raisi va boshqaruv kengashi raisi (bosh direktor) keyin korporativ boshqaruv hiyerarshisida uchinchi o'rinni oladi. Aktsiyalar birjada sotilmaydigan kichik shirkatlarda korporativ kotibning funksiyasi kombinatsiyadagi huquqiy boshqarma rahbari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

12.3. Korporativ boshqaruv tizimida nazorat: korporativ kotib vakolatlari, huquq va majburiyatlari.

Korporativ kotibning majburiyatlari:

jamiyat, uning boshqaruv organlari va mansabdor shaxslarning amaldagi qonunchilik talablariga, aktsiyadorlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydigan kompaniya ustaviga va ichki hujjatlariga va boshqa hujjatlarga muvofiqligini ta'minlash;

- qonun hujjatlari monitoringi, kompaniya hujjatlarining qonun talablariga muvofiqligini muntazam tekshirish;

- kompaniyaning ustavini va boshqa ichki hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash, ularga qo'shimchalar va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni tayyorlash va taqdim etish [18];

Kompaniya boshqaruv organlari, mansabdor shaxslar, aktsiyadorlar va kompaniya xodimlari tomonidan qonunchilik va ichki me'yoriy hujjatlar talablarining buzilishlarini aniqlash, ular haqida kompaniyaning tegishli organlarini xabardor qilish, aniqlangan huquqbuzarliklar va tegishli javob choralarini yozish.

Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishlari va kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini nazorat qilish.

- boshqaruv organlarining shakllanishi va faoliyatining qonunchilik va kompaniya ichki me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash;

- Kompaniya haqida ma'lumotlarning oshkor etilishini ta'minlash;

- qarorlarni qabul qilishda kompaniyaning boshqaruv organlari o'z vakolatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

- Kompaniyaning dividendlar siyosatini amalga oshirish jarayonida qonun hujjatlari va ichki hujjatlarning talablariga muvofiqligini ta'minlash;

kompaniyaga nisbatan har qanday chorani ko'rishi uchun manfaatdorligi to'g'risida axborotni tarqatish yuzasidan mansabdor shaxslarga qonun hujjatlarining va ichki hujjatlarining talablariga rioya qilinishini nazorat qilish;

- jamiyat organlarining mansabdor shaxslari faoliyatida axloqiy me'yorlarga rioya etilishini nazorat qilish;

- jamiyatda qabul qilingan boshqa qoidalar va tartib-qoidalarining bajarilishini nazorat qilish.

Kompaniyaning Boshqaruv Kengashi ishini ta'minlash:

Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari ish rejalarini bir yil davomida shakllantirish va muvofiqlashtirish jarayonida ishtirok etish;

Kuzatuv kengashining majlislari kun tartibini shakllantirish va muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

kuzatuv kengashi qarorlarining loyihalarini majlislar kun tartibiga muvofiq ishlab chiqishda ishtirok etish.

13-mavzu: Korporativ boshqaruvning ichki va tashqi mexanizmlari

Reja:

13.1. Korporativ boshqaruvning ichki va tashqi mexanizmlari haqida tushunchasi

13.2. Korporativ boshqaruvning darajasi va mexanizmlari

13.3. Korporativ boshqaruvning qo'shimcha mexanizmalari

13.1. Korporativ boshqaruvning ichki va tashqi mexanizmlari haqida tushunchasi

Korporativ boshqaruv, aktsiyadorlar (investorlar) huquqlarini himoya qilish uchun mo'ljallangan va ular jamiyatning faoliyatini nazorat qilishni boshqaradigan tizim sifatida qaraladi. U korporativ boshqaruv doirasida investorlarning menejerlarning ishlarini qanday boshqarayotgani va kompaniya faoliyatining natijalari bo'yicha investorlar uchun qanday mas'uliyat rahbarlari bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Alla Papaika, korporativ boshqaruv direktori va Korporativ moliya NKTSBFR (qimmatli qog'ozlar bo'yicha Milliy komissiyasi va fond bozori), ichki birja bozorida faoliyat asosiy mexanizmlari, vositalar va korporativ boshqaruv muassasalari haqida gapirdi.

Aksiyadorlik jamiyati (OA) ning muvaffaqiyatli faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omil - bu investitsion resurslardan foydalanish. Shu bilan birga, agar korporativ boshqaruvni samarali amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rmasa, "OAJ" investorlarning ishonchi va tashqi moliyalashtirishga tayanmaydi. U investorlarning huquqlarini, ishonchli boshqaruv va nazorat qilish mexanizmlarini, ularning faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni himoya qilish to'g'risida. Korporativ boshqaruv kompaniyaning vazifalari aniqlangan chegaralar, ularni amalga oshirish yo'llari va kompaniyaning faoliyati monitoringini olib boradi. Shunday qilib, korporativ boshqaruvning samarali tizimining mavjudligi kapital xarajatlarini oshiradi, kompaniyalarni o'sish uchun asos yaratadigan resurslardan yanada samarali foydalanishga da'vat etiladi.

13.2. Korporativ boshqaruvning darajasi va mexanizmlari

AJda uchta asosiy boshqaruv darajalari tanlanadi:

Aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi;

- Kuzatuv kengashi;
- ijro etuvchi organ.

Ushbu organlarning faoliyati samarali bo'lishini ta'minlash uchun AJ korporativ boshqaruv tizimini amalga oshiradi, bu kompaniya boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligini tartibga soladi.

Aktsiyadorlik kompaniyasi korporativ boshqaruvni mexanizmlari: o'z korporativ boshqaruv tamoyillarini, kompaniya faoliyatini boshqarish, xususan vakolatli organi AO ichki nizomlar, Kuzatuv kengashi joy, ijro etuvchi organi, Korporativ kotibi, taftish komissiyasi va hokazo; umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi majlislarida sherigi vakili etadi shaxslarning aniqlash; aktsiyadorlar umumiy yig'ilishida kompaniya organlarining hisobotlarini nazorat qilish; kompaniya organlari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish (qonun umumiy yig'ilishining mutlaq vakolat nazorat ostida, masalan, a'zolarini saylash to'g'risidagi qarori tushadi); Kuzatuv kengashining qo'mitalari faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish; ta'minlash axborot oshkoralik, xususan, kompaniya hujjatlar aktsiyadorlarining jamoat axborot, kirish oshkor va boshqalar

Demak, korporativ boshqaruvning to'g'ri tizimi investorlar tomonidan kompaniyaning boshqaruvi moliyaviy va iqtisodiy faoliyat uchun investitsiyalardan oqilona foydalanayotganiga ishonch hosil qilishiga imkon beradi, chunki bu bilan kompaniyaning ustav kapitalida investorlar ishtirokining ulushi oshadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyadorlik jamiyatining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishining yig'ilishi yillik va favqulodda bo'lishi mumkin. Favqulodda umumiy yig'ilishni chaqirishni boshlash quyidagi huquqlarga ega: Kuzatuv kengashi; ijro etuvchi organ; Boshqarish komissiyasi; Kompaniyaning oddiy aksiyalarining 10 yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyadorlik jamiyatining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Birinchidan, aksiyadorning yoki uning vakilining umumiy yig'ilishda ishtiroki shirkatni boshqarishda ishtirok etish huquqlarini amalga oshirish usullaridan biridir. Shunday qilib, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kompaniyaning vakolatli organlaridan qat'iy nazar, ularning faoliyati bilan bog'liq har qanday masalalarni hal qilishi mumkin. Umumiy yig'ilishda aksiyadorlarning ishtiroki bevosita boshqaruv ekanligi e'tiborga olganda, kompaniya yordamchi organlar tashkil qiladi:

13.3.Korporativ boshqaruvning qo'shimcha mexanizmalari

U investorlarning huquqlarini, ishonchli boshqaruv va nazorat qilish mexanizmlarini, ularning faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni himoya qilish to'g'risida.

Korporativ boshqaruv kompaniyaning vazifalari aniqlangan chegaralar, ularni amalga oshirish yo'llari va kompaniyaning faoliyati monitoringini olib boradi. Shunday qilib, korporativ boshqaruvning samarali tizimining mavjudligi kapital xarajatlarini oshiradi, kompaniyalarni o'sish uchun asos yaratadigan resurslardan yanada samarali foydalanishga da'vat etiladi.

12-MAVZU KORPORATIV BOSHQARUVNING ICHKI VA TASHQI MEXANIZMLARI

Korporativ boshqaruvning darajasi va mexanizmlari

AJda uchta asosiy boshqaruv darajalari tanlanadi:

Aktsiyadorlar umumiy yig'ilishi;

- Kuzatuv kengashi;
- ijro etuvchi organ.

Ushbu organlarning faoliyati samarali bo'lishini ta'minlash uchun AJ korporativ boshqaruv tizimini amalga oshiradi, bu kompaniya boshqaruv organlarining o'zaro hamkorligini tartibga soladi.

13-мавзу MUSTAQIL DIREKTOR VA UNING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'RNI

Mustaqil direktor tushunchasi

Mustaqil direktor - uning aktsiyadorlari fikricha kompaniyasi, uning filiallari, yirik pudratchi va uning hukm mustaqilligini ta'sir qilishi mumkin, boshqa yo'l bilan bir jamiyat emas jamiyat xodimlarining mustaqil saylash qaysi direktorlar kengashi a'zosi.

Korporativ harakatlar ba'zi turlarini amalga oshirish uchun, masalan, aloqador shaxs, mustaqil direktorlar qarashlari alohida hisoblanadi va u bitim manfaatdor emas mustaqil direktorlar ko'p ovoz oladi, agar qaror faqat sharti qabul qilinadi.

13-мавзу MUSTAQIL DIREKTOR VA UNING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'RNI

Mustaqil direktorning vakolati quyidagilardan iborat:

- aktsiyadorlar yig'ilishini tayyorlash va o'tkazish, Direktorlar kengashining majlislarida ishtirok etish;
- yirik operatsiyalarni amalga oshirish va qimmatli qog'ozlarni chiqarish istiqbollarini tahlil qilish (shuningdek ularni amalga oshirish);
- auditorlik faoliyati, kompaniya faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish;
- korporativ madaniyatni boshqarish, ijtimoiy mas'uliyat masalalarini hal qilish.

14-MAV3Y MUSTAQIL DIREKTOR VA UNING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'RNI

Rossiyadagi "Korporativ boshqaruv kodeksi" ga qo'shimcha ravishda ishlab chiqilgan "Mustaqil direktor kodeksi" ga ko'ra, agar taklif etilsa, taklif etilgan direktor mustaqil bo'lishi mumkin:

1. Asosiy mezonlar:

oxirgi uch yil mobaynida mavjud emas va hozirgi paytda kompaniya rahbariyati yoki menejeri, shuningdek, uning boshqaruv organining mansabdor yoki ishchisi emas;

kompaniyaning biron bir mansabdor shaxsi direktorlar kengashi va ish haqi qo'mitasining a'zosi bo'lgan boshqa kompaniyaning mansabdor shaxsi bo'lmasa;

kompaniya boshlig'i (boshqaruvchi) ning mansabdor shaxsi emas (boshqaruvchi tashkilotning mansabdor shaxsi);

Kompaniyaning affillangan shaxsi, shuningdek, affillangan shaxslar bilan aloqador bo'lishi;

davlatning vakili emas.

14-MAV3Y MUSTAQIL DIREKTOR VA UNING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'RNI

Quyidagilar AJ kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin:

(I) so'nggi besh yil mobaynida AJ, uning sho'ba va affillangan korxonalarida ishlamagan shaxslar;

(II) AJ, uning sho'ba va affillangan korxonalari aksiyadori bo'lmagan shaxslar;

(III) AJ, uning sho'ba va affillangan korxonalari bilan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh ming baravari miqdoridan yuqori summaga tegishli shartnomaga ega bo'lgan yirik mijozlari yoki mol yetkazib beruvchilari bilan bog'liq bo'lmagan shaxslar;

(IV) AJ, uning sho'ba va affillangan korxonalari bilan xizmat ko'rsatish yuzasidan shartnomaga ega bo'lmagan shaxslar;

**15-mavzy DIREKTORLAR KENGASHINING QO'MITALARI: KADRLAR
VA MUKOFOTLASH BO'YICHA QO'MITA, UNING VAZIFA VA
FUNKSIYALARI**

**Direktorlar kengashining kadrlar va mukofotlash bo'yicha
qo'mitasi**

Qo'mitaning asosiy vazifasi Kompaniyaning kadrlar siyosati va meros siyosati samaradorligini, tayinlash va mukofotlash tizimini baholash, Kompaniyaning ijro etuvchi organlari va boshqa yuqori lavozimli rahbarlari faoliyatining baholashini baholash yo'li bilan aktsiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun Etakchi kengashga yordam berishdan iborat.

**15-mavzy DIREKTORLAR KENGASHINING QO'MITALARI: KADRLAR
VA MUKOFOTLASH BO'YICHA QO'MITA, UNING VAZIFA VA
FUNKSIYALARI**

**Direktorlar kengashining kadrlar va mukofotlash bo'yicha
qo'mitasi**

Qo'mitaning asosiy vazifasi Kompaniyaning kadrlar siyosati va meros siyosati samaradorligini, tayinlash va mukofotlash tizimini baholash, Kompaniyaning ijro etuvchi organlari va boshqa yuqori lavozimli rahbarlari faoliyatining baholashini baholash yo'li bilan aktsiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun Etakchi kengashga yordam berishdan iborat.

**15-mavzu DIREKTORLAR KENGASHINING QO'MITALARI: KADRLAR
VA MUKOFOTLASH BO'YICHA QO'MITA, UNING VAZIFA VA
FUNKSIYALARI**

Qo'mitaning vazifalari quyidagilardan iborat:

Kompaniyani boshqarishda malakali mutaxassislarning ishtirok etishi
va ularni muvaffaqiyatli ishlashi uchun zaruriy imtiyozlar yaratilishi;

ijro etuvchi organlarning a'zolarini tayinlashni rejalashtirish, shu
jumladan faoliyatning davomiyligini hisobga olgan holda;

Kompaniyaning boshqaruv organlari va yuqori menejerlari a'zolarining
professional malakasiga nisbatan joriy va kutilayotgan ehtiyojlarini tahlil
qilish;

Kompaniyaning manfaatlari va rivojlanish strategiyasi;

**15-mavzu DIREKTORLAR KENGASHINING QO'MITALARI: KADRLAR
VA MUKOFOTLASH BO'YICHA QO'MITA, UNING VAZIFA VA
FUNKSIYALARI**

Qo'mitaning kompetntsiyasiga kiradi:

Dastlabki ko'rib chiqish va vakolatlari quyidagi sohalarda direktorlar
kengashi uchun tavsiyalarni tayyorlash;

Direktorlar kengashi a'zolarining haq aniqlash uchun tasdiqlash
mezonlari;

asosiy ko'rsatkichlarini aniqlash va yillik bonuslar miqdori tasdiqlash,
kollegial ijroiya organi a'zolari Kompaniya kompaniya yagona ijro etuvchi
organi, shuningdek kompaniyaning boshqa rahbar (yuqori darajali
rahbarlari);

Kompaniyasi prezidenti vakolatlarini muddatidan oldin to'xtatish
to'g'risidagi qaror Prezidentining tayinlash;

**16-mavzu DIREKTORLAR KENGASHINING QO'MITALARI: STRATEGIK
REJALASHTIRISH BO'YICHA QO'MITA, UNING VAZIFA VA
FUNKSIYALARI**

Qo'mita asosiy vazifasi Kompaniya nazorat strategik rivojlanish amalga oshirish Kompaniya aksiyadorlarining direktorlar o'z manfaatlarini himoya qilish ta'minlashda kengashi yordam berish. Qo'mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kompaniya va biznes bosqichlari ustidan kompaniyasi individual strategiyalarni strategiyasini ishlab chiqish va monitoringini doir tashabbuslar top menejerlar kompaniya strategik baholash faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan belgilash qatnashish;

- Kompaniya faoliyati doirasi va direktorlar kengashi diqqatiga tegishli ma'lumotlarni muloqot kuni Rossiya Federatsiyasi amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari tahlil;

- Kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha tasdiqlangan rejalar bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etish;

**16-mavzu DIREKTORLAR KENGASHINING QO'MITALARI: STRATEGIK
REJALASHTIRISH BO'YICHA QO'MITA, UNING VAZIFA VA
FUNKSIYALARI**

biznes-loyihalarni va investitsiya dasturlarini Kompaniyaning uzoq muddatli strategiyasiga muvofiqligini oldindan ko'rib chiqish;

Kompaniyaning qayta tashkil etilishi munosabati bilan Kompaniyaning yuqori menejerlarining tashabbuslarini oldindan ko'rib chiqish;

aktsiyalar va aktsiyalarni sotib olish, qo'shib yuborish, sotib olish, sotish, strategik bitimlar va qo'shma korxonalar yaratish, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq tasniflangan bitimlar bo'yicha takliflarni dastlabki ko'rib chiqish;

Kompaniyaning strategiyasini amalga oshirish bo'yicha axborotni (hisobotlarni) oldindan ko'rib chiqish

FANGA DOIR VIDEO MA'RUZALAR VA VIDEO ROLIKLAR

FANGA DOIR VIDEO MA'RUZALAR, VIDEO ROLIKLAR

<https://www.youtube.com/watch?v=y81kijng3g0> - berkeley middle east inc. usa, corporate governance video

<https://www.youtube.com/watch?v=0reumep1wwk> -online corporate governance training

<https://www.youtube.com/watch?v=cbltlm80kxa> - leksiya sergeya gurieva "korporativnoe upravlenie: sovetы direktorov" iz kursa resh "finansы: prosto o slojnom"

<https://www.youtube.com/watch?v=cfoph8nf5n8> - «korporativnoe upravlenie», leksiya professora resh sergeya stepanova iz kursa «finansы: prosto o slojnom» pri podderjke kompanii ernst&young.

<http://lectoriy.mipt.ru/lecture/business-markcapfininst-104-kontor-140227> - sliyaniya, poglощeniya i korporativnoe upravlenie

https://www.youtube.com/watch?v=fkd_1zb_6i4 - Korolyov v.a. «korporativnoe upravlenie dlya «nekorporatsiy» kak instrument realizatsii strategii»

<https://www.youtube.com/watch?v=innjfuubmkm> - korporativnoe upravlenie: mejdu anekdotom i jiznyu (a.d. berlin)

<http://www.investopedia.com/video/play/corporate-governance/> - corporate governance

<https://www.youtube.com/watch?v=dx7peke7wja> - corporate governance learning lecture

<https://www.youtube.com/watch?v=s5eoy988728> - corporate governance - what do shareholders really value? (lecture only)

<https://www.youtube.com/watch?v=gp3yqeodua0> - ouhk - corporate governance - principles, policies and practices lecture

QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma’ruza mashg‘uloti – OO‘YUda o‘qitishni tashkil etishning etakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo‘naltirilgan.

Ma’ruzani asosiy belgilanishi – o‘qitishni nazariy asosini ta’minlab berish, o‘quv faoliyatga va aniq o‘quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o‘quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun orientirlarni shakllantirish.

Ma’ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma’ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko‘p emasligi.

Ma’ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun etarli bo‘lishi kerak.

Ma’ruzalar turlari vaularga xos xususiyatlar

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
<i>Kirish ma’ruzasi</i>	
Fan doirasida o‘quv axborotini o‘zlashtirish bo‘yicha talabalar harakatining yo‘naltiruvchi asosini ta’minlash.	Ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o‘quv fani mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi ahamiyati to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo‘naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
<i>Axborotli ma’ruza</i>	
O‘quv mavzu bo‘yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an’anaviy ma’ruza turi: ma’ruza rejasiga muvofiq o‘quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
<i>Muammoli ma’ruza</i>	

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
Muammoni belgilash va uni echimini topishni tashkillashtirish/an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	YAngi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
Ko'rgazma ma'ruza	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
Binar ma'ruza	
Talabalarga munozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda echishni namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini o'zida namoyon etadi.
Anjuman-ma'ruza	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/ bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
Umumlashtiruvchi ma'ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va konseptual asosi tashkil etadi.
Maslahatli-ma'ruza	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha ssenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi. 2. "Savol-javoblar-munozaralar": o'qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
	javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
Yakuniy ma'ruza	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o'rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o'tilganlarni umumlashtiradi. Yakuniy ma'ruzada o'qituvchi kursning asosiy g'oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o'rganishda olgan bilimlarni qanday qo'llash yo'llarini ko'rsatadi, fan bo'yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg'ulot:

- o'quvchilarni o'qituvchi bilan va o'zaro faol suhbatga kirishishiga yo'naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta'minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo'ljallangan mashg'ulotning o'qitish shakli.

Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko'rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarining bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta'minlanadi;
- ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg'ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot turi	Amaliy mashg'ulot shakli, uning o'ziga xos
------------------------	--

	xususiyatlari
Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish: - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish. - tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.	Keng ko'lamli suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqatti va qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi. Ma'ruza va referatlar muhokamasi. Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3 ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p holllarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. SHu bilan birga, odatiy seminar ishiga "quruq nazariyalik" elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponent sifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari avvaldan muhokama qilib bo'lingan, katta bir mavzu bo'yicha ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Press-konferensiya.

	Qisqa soʻzga chiqishdan soʻng birinchi savol boʻyicha maʼruzachiga (agarda maʼruzalar bir qator talabalarga berilgan boʻlsa, oʻqituvchining oʻzi ulardan biriga soʻz beradi) soʻz beriladi. SHundan soʻng har bir talaba maʼruza mavzusi boʻyicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarining markaziy qismini tashkil etadi. Qancha koʻp jiddiy tayyorgarlik koʻrilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval maʼruzachi javob beradi, soʻngra u yoki boshqalar boʻyicha istagan bir talaba oʻz fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qoʻshimcha maʼruzachilar, agarda shundaylar belgilangan boʻlsa, faol boʻladilar. Oʻqituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol boʻyicha, yoki seminar yakunida oʻz xulosasini qiladi. <i>Oʻzaro oʻqish.</i> Tushunish va oʻzlashtirish uchun eng koʻp murakkablikdagi savollarni oʻrganish asosiy maqsadga ega boʻlgan, seminar. Seminar mobaynida talabalarni oʻzaro oʻqishga yoʻnaltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu boʻyicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan maʼlumotlarni vizual taqdim etish boʻyicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarining ish natijalari taqdimotidan soʻng oʻqituvchi xulosalar qiladi. <i>YUmoloq (yozma /ogʻzaki) stol.</i> Oʻtgan mavzu boʻyicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qoʻllash, oʻz fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish koʻnikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega boʻlgan, seminar. Har xil ssenariylar boʻyicha oʻtkazilishi mumkin. 1. «YOzma yumoloq stol» - talabaning savoli / echimi topilishi kerak boʻlgan gʻoya yozilgan varaq, doira boʻyicha uzatiladi va har bir ishtirokchi oʻz mulohazalarini qoʻshadi. 2. «Ogʻzaki yumoloq stol» - har bir talaba qoʻyilgan savolning javobiga oʻz qoʻshimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan gʻoyani
--	---

<i>Ilm-fanning alohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.</i>	qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. Spetsseminar. Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi. Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'qituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollarini va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.
Maxsus (kasbiy) va umumio'quv ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish: - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va echish jarayonida xarakteristik algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.	Ta'limiy o'yin. O'qitish samaradorligini uning ishtiroqchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu erda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shakllantiradi; vyirabatyvaet dinamik rolevogo povedeniya; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnoma, personajlar ta'rifi (agar o'yin roli yoki ishbilarmon bo'lsa) yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash. Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishish → topshiriqni bajarish → natijalarning ommaviy taqdimoti → natijalarni umumlashtirish va baholash. Masalalar echish bo'yicha mashq. Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish –

	masalani echish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish. <i>Muammoli masalalar va vaziyatlarni echish.</i> Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalar tomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni echish va muammoli vaziyatlarni ko‘rib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bog‘lashga imkon beradi. Bu o‘qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o‘rganilayotgan materialni amaliy foydasini tushunishga yordam beradi. <i>Ta’lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keys) echish.</i> Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq echim variantlarini qidirishga yo‘naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o‘z ichiga oladi. Keysni echish jarayoni quyidagi bosqichlarini o‘z ichiga olish muhim: → muammoni yakka tartibda tahlil qilish va echish, → yakka tartibda topilgan echimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o‘zaro maqbul echim variantini rasmiylashtirish, → guruh ishini taqdimoti, → muammoni echish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash. Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni echish jarayonida paydo bo‘lingan, mustaqil topilgan dalillar orientirlarni, kasbiy boyliklarni topishga va mustaqamlashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati bilan aloqani anglashga ko‘maklashadi. <i>O‘quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi</i> Ushbu o‘quv mashg‘ulotini tayyorlashda o‘qituvchining roli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig‘ini ishlab chiqish; talabalarga ma’lumotlarni izlashda yordam berish; o‘zi axborot manbai bo‘lishi; butun jarayonni muvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga
--	--

	oshirish; maslahat berish. Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida). O'qituvchi guruhlarining o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.
Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash	Kollokvium. O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimcha mavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan etarli darajada o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun. Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. YOzma ishlar tekshirilishi mumkin. YOzma (nazorat) ish. Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni echadilar/ nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.

3. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar echish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

♣Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni echishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.


♣O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;

- ko'p har xil ma'nodagi echim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - **INSERT** – Interaktiv-interfaol **Noting** – belgilash **System** - tizim for-uchun **Effective** – samarali **Reading** – o'qish and– va **Thinking** – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(–) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) - meni o'ylantirib qo'ydi. Bu bo'yicha menga qo'shimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o'quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o'rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni echish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o'qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o'tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS-STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to'plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni echish jarayonida qo'llash imkonini beruvchi *o'qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o'rganib va tahlil qilib, o'quvchilar o'zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o'xshash vaziyatlarda qo'llashi mumkin bo'lgan tayyor echimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg'ulotlarda echiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo'lsa, keysda, qoidaga ko'ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O'quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo'lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni echish uchun kerakli va etarli xajmda ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak
- keysni echish uchun *uslubiy ko'rsatmalar* bo'lishi kerak.

Keys-stadi (ingl.sase– to'plam, aniq vaziyat, stadi-o'qitish)–amaliy o'qitish vaziyatlarimethodi.

Keys-stadi - o'qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan o'qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o'quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo echimini eng maqbul variantini tanlashga.

O'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o'rtacha miqdordagi, katta)
2. O'quv topshirig'ini taqdim etish usuli:
 - savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
 - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O'QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma'lum muddat ichida (bitta o'quv mashg'ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta'lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig'ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo'naltirilgan yangi ma'lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy echimidan iborat.

O'quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va echish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni echishga qaratilgan o'quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta'lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog'lam)-axborot xaritasini tuzish yo'li barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

1. Katta qog'oz varag'i markazida kalit so'z yoki 1-2 so'zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so'z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- "yo'ldoshcha" ichiga mavzu bilan aloqador so'z yoki so'z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan "bosh" so'zga bog'lang.

3. Ushbu "yo'ldoshcha"larda "kichik yo'ldoshlar" ham bo'lishi mumkin, ular ichiga yana so'z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g'oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«**NIMA UCHUN?**» **SXEMASI** –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.

2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring


«**BALIQ SKELETI**» **CHIZMASI** – bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:

Муаммо ости
муаммолар



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o‘ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning echimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko‘p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o‘ylashga hojat bo‘lmaydi. Muammo echimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo‘ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga echilishi lozim bo‘lgan muammoni yozing.

2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo‘ying va shu savolga javob bering. SHu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o‘ylab o‘tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

YAngi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko‘rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko‘p miqdordagi foydali g‘oyalar va muammo echimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni echimini topish uchun to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan echimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O‘zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o‘z navbatida to‘qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qo‘nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O‘zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o‘z navbatida to‘qqizta kichik kvadratdan iborat;

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g‘oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

MUSTAQIL TA'LIMG'A OID TOPSHIRIQLAR

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni № 4720 2015 yil 24 aprelda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoning mohiyati va korporativ boshqaruvni rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish.
2. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan korporativ boshqaruv kodeksini xalqaro kodekslar bilan qiyosiy tahlili.
3. O'zbekistonda korporativ boshqaruvni rivojlantirishning huquqiy asoslari va xorijiy investorlarga berilgan kafolatlar.
4. Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2015 yil 28 iyulda qabul qilgan 207 sonli qarori tahlili.
- 5.. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996 yil 26 aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014 yil 06 mayda tasdiqlangan.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekistan Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, st. 70.
- 7.. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 22 dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O'zbekiston, 2017 y., 104 b...
- 8.Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari
- 10.O'zbekiston respublikasida korporativ boshqaruv muammolari va ularni hal etish masalalari va korporativ boshqaruvning rivojlanish istiqbollarini
- 11.Korporativ boshqaruv tizimi fanining perdmoti maqsadi va vazifalari
12. Korporativ tuzilmalarning strategiyalarining asosiy yo'nalishlari.
- 13.Korporativ boshqaruv nazorat organlari
- 14.Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi .
- 15.xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi.
- 16.Oilaviy kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi.
- 17.Ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda korporativ boshqaruv tizimi.
- 18.. Xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi asoslari.
19. O'zbekistonda oilaviy korxonalar va ularni boshqarish.
20. Moliya sanoat guruhlarida korporativ boshqaruv
- 21.Korporativ boshqaruv tizimida nazorat taftish komissiyasi
22. Korporativ boshqaruv tizimida nazorat tashqi auditor
23. Korporativ boshqaruv tizimida nazorat korporativ kotib

GLOSSARIYLAR

GLOSSARIYLAR

O'zbek tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi	Terminning sharhi
Agent	Agent	Agent	shartnoma asosida “agentlik to'lovi” ga amal qilgan holda boshqa shaxsning topshirig'iga kura birinchi hisob raqamdan ikkinchi hisob raqamga pul o'tkazish operastiyalarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxsdir
Anderrayter	Anderayter	Underwriter	shaxs yoki tashkilot ko'rinishida bo'lib, u qimmatbaho qog'ozlarni ya'ni yangi chiqarilgan akstiya va obligastiyalarni investorlarga sotishda javobgarlikni va kafillikni o'z bo'yniga oladi.
Asimmetrik axborot	Assimetri cheskaya informatsiya	Asymmetrical information	birinchi guruh etarli darajadagi axborotga ega bo'lishi, boshqa gunuhning axborotlarga ega bo'lmaslik holati
Austayder	Autsayder	Outsider	korporastiya va uni boshqarishda qatnashmaydigan, “Mustaqil direktor” bo'lmagan, korporastiyaning ishchisi bo'lmagan lekin korporastiyaning akstiyasiga ega bo'lgan shaxs
Affillangan shaxs	Affilirovanny litso	Affiliated person	korporastiyaning faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs
Aksiyadorlik kapitali	Aksioner-nyy kapital	Share capital	akstiyadorlik jamiyatining akstiyalarini emissiya qilish yo'li bilan shakllantirgan kapitali. Akstiyadorlik jamiyatining muassislari- akstiyadorlik jamiyatini tuzish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar
Assotsiyat-siya	Assotsia-siya	Association	Tijorat tashkilotlari o'rtasida ular faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, umumiy mulkiy manfaatlarni ifodalash va himoya qilish maqsadida tashkil etiladigan birlashma tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir

Diversifikat siya	Diversi fikatsiya	Diversifi cation	har tomonlama rivojlantirish; yirik firmalar-birlashmalar yoki tarmoqlar faolligini kengaytirish
Dividend	Divident	Dividend	bu foydaning soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investistiya amalga oshirilganidan so'ng akstiyadorlar jamiyati ixtiyorida qoladigan, akstiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismi
Insayder	Insayder	Insider	kompaniya faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompaniya haqida tijorat axborotiga ega bo'lgan kompaniya xodimi.
Investistiyalar	Investi sii	Investment	pul mablag'lari sarflari bo'lib, tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga kiritiladigan foyda, yaratiladigan yoki ijtimoiy samara beradigan mulkiy yoki intelektual boyliklarning hamma turlaridir.
Investition faoliya	Investitsionnaya deyatelnost	Investment activities	foyda olish yoki boshqa foydali samara olish uchun investistiyalar qo'yish va amaliy faoliyatni tashkil qilishdir.
Yillik hisobot	Godovoy otchet	Annual report	akstiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish jarayonida akstiyadorlik jamiyatlari xodimlariga va ushbu jamiyatning faoliyati bilan qiziquvchi shaxslarga taqdim etiladigan balans-zarar va foyda haqidagi hisobot, auditor va taftish komissiyasi xulosasi-jamiat rahbariyatining kompaniya faoliyati bo'yicha, kompaniyani rivojlantirish va boshqarish haqidagi izohlari to'plami
Kartel	Kartel	Cartel	narxlarni qat'iyashtirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini cheklash yo'li bilan foydani hamkorlikda ko'paytiradigan ishlab chiqaruvchi guruhlar.
Konsorstium	Konsor- sium	Consortium	bir necha banklar va kompaniyalarning yirik moliyaviy operastiyalarini amalga oshirish uchun tuzilgan monopolistik birlashma.

Korporativ boshqaruv	Korporativnoe upravlenie	Corporate Governance	bu biznesning tashkiliy - huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashtirishini boshqarish, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir
Korporatsiya	Korporatsiya	Corporation	(lotincha corporatio – birlashish) – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil sub'ektini – huquqiy shaxsni
Konsern	Konsern	Business concern	Manfaatlar umumiyligi, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi bilan bog'langan, yagona mulkchilik negizi va nazorat organiga ega bo'lgan korxonalar birlashmasi. Nazorat nizom kapitalida ishtirok etish tizimi orqali amalga oshiriladi
Konglomerat	Konglomerat	Konglomerat	Texnologik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ko'p sonli tashkilotlarning birikuvi (birlashish va qo'shib olish) natijasida vujudga keladigan struktura.
Kredit	Kredit	Credit	o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan ssuda kapitalining maqsadli xarakatini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlardir
Lizing	Lizing	Leasing	bu zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarni, qo'zg'almas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijaraga berish to'g'risidagi shartnomadir.
Marja	Marja	Margin	savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.

Moliya sanoat guruhlari (MGS)-	FPG	Finansial industrial group	MGS tashkil etish haqida shartnoma imzolagan, yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik sub'ektlari majmui. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish sohasida amal qiluvchi strukturalar va moliyaviy struktura mavjud bo'lishi shart. Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.
Majoritar akstiyador	Мажоритарные акционеры	Major shareholders	kompaniya ustidan nazorat qilish uchun yirik akstiyalar paketi egalari.
Minoritar akstiyador	Миноритарные акционеры	Minority shareholders	kompaniya tijorat va siyosiy masalalarini hal etishda etarsiz akstiyalar paketiga ega shaxslar
"Oltin akstiya"	Золотая акция	Gold share	bu ayrim akstiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda davlat ishtirokining maxsus huquqi bo'lib, u strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlat korxonalari xususiylashtirilayotganda yoki akstiyadorlik jamiyatlarining davlat akstiya paketlari xususiy mulk etib realizatsiya qilinayotganda O'zbekiston Respublikasi Xukumatining qaroriga asosan joriy qilinadi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlari ximoya qilinishini ta'minlaydi
Sindikatsiya	Синдикат	Syndicate	bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish korxonalarining o'z mahsulotlarini yagona savdo tarmog'i orqali sotishni tashkil etish maqsadida tuzilgan korporativ birlashma.
Trest	Трест	Trust	Turli tashkilotlar umumiy ishlab chiqarish majmuiga birlashadigan tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan birlashma. Bunda ular akstiyalar nazorat paketini yoki ishonch asosidagi shartnomani ishonch asosidagi kengashga berib, yuridik, ishlab chiqarish va tijorat mustaqilligini yo'qotadi.

**TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON
JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR**

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Elektron jurnallar

1. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal.
www.iqtisodiyot.uz
2. Ekonomicheskoe obozrenie. www.cer.uz
3. Investopediya - <http://www.investopedia.com/>
4. Garvard biznes maktabi jurnali - Harvard Business Review articles on CG
<https://hbr.org/topic/corporate-governance>

Internet saytlar

<http://www.economist.com/topics/corporate-governance>
<http://www.efinancialnews.com/topic/corporate-governance>
<http://www.investopedia.com/>
<http://www.oecd-ilibrary.org/governance>
<https://hbr.org/topic/corporate-governance>
<https://www.frc.org.uk/>
<http://www.norma.uz/>
<http://lex.uz/>
<https://www.gov.uz/uz>
<http://uza.uz/oz/>
<http://www.cfin.ru/>
<http://economy.gov.ru/>
<http://www.nccg.ru/>

A.Ismailov

Korporativ boshqaruv tizimi

Fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua

Ma'ruza mashg'uloti uchun

Toshkent: Iqtisodiyot, 2018 yil, 179 bet.